O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTAMAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI


ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
MAXSUS SIRTQI BO’LIM

“BADIIY GRAFIKA VA UNI O’QITISH METODIKASI” KAFEDRASI
ISLOMOV BURHON BAHRONOVICH


**SAKKIZ RAHLI XONTAXTA YUZASIGA NAQSH KOMPOZITSIYASINI ISHLASH**

“5211200-AMALIY SAN’AT”

yo’nalishi bo’yicha bakalavr darajasini olish uchun

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

ILMIY RAHBAR: D.OMONOV

Bitiruv malakaviy ishi “Badiiy grafika va uni o’qitish metodikasi” kafedrasida bajarildi.Kafedraning 2011 yil 25 maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayonnoma №___)

Kafedra mudiri: dots. M.Umarov

Bitiruv malakaviy ishi YaDAKning 2011 yil ___ iyundagi majlisida himoya qilindi va ____ ball bilan baholandi (bayonnoma №___)

YaDAK raisi: ______________________________________________

A’zolari: ______________________________________________

______________________________________________

______________________________________________

Samarqand-2011

## MUNDARIJA


**Kirish ……………………………………………………………………. 2**

**I-Bob.Amaliy san'atda badiiy bezash ishlarini tashkil etish.**

1.1 Badiiybezashishlariningmaqsadi, mazmuniva vazifalari. ……. 4

1.2 Naqqoshlik san'atining inson xayotidagi o'rni. ………………… 20

1.3 Naqsh va uning turlari…………………………………………….. 36

**II-Bob.Naqsh kompozitsiyalarini ishlash jarayoni.**

2.1 Mustaqil naqsh kompozitsiyalarini tuzish. ……………………. 40

2.2 Naqsh elementlari asosida kompozitsiyalarini tuzish. ………….. 45

2.3 8raxlixontaxtayuzasiganaqshkompozitsiyasiniishlash. ……. 48

**III. Xulosa ……………………………………………………………….. 49**

**IV. Adabiyotlar**…………………………………………………….. 51

Davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri, bu–ma'naviy jihatdan barkamol insonni tarbiyalash, ta'lim va maorif tizimini takomillashtirish, milliy uyg'onish g'oyasi asosida ma'naviy va ruhiy jihatdan yangi avlodni voyagaetkazishdir".

I.A. Karimov

# KIRISH

Mavjud ta'lim–tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalash- O"zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyagaetkazish to'g'risidagi farmoni va "Ta'lim to'g'risida" gi qonun va kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturning negizini tashkil qiladi.

Bu dolzarb vazifalar prezidentimiz vaxukumatimizning doimiy e'tiborida bo'lib, boshqa farmon vaqarorlarda ham o'z aksini topmoqda.

Go'zallikni his qilaolishni rivojlantirish, yuqori estetik didni shakllantirish, san'at asarlarini, tarixiy va me'morlik yodgorliklarini, ona tabiat go'zalliklarini, boyligini tushunish va kadrlarni shakllantirish maqsadida har bir o'quv fani imkoniyatidan, ayniqsa bilim doirasini kengaytirish uchun xizmat qiladigan va katta tarbiyaviy kuchga egabo'lganadabiyot, musiqa. tasviriy san'at, estetika kabi fanlaridan umumiy foydalanish kerak.

Badiiy bezak ishlari fani tasviriy san'at, chizmachilik vaamaliy san'at o'qituvchilarini tayyorlashning tarkibiy qismi hisoblanadi. Badiiy bezak ishlari predmeti estetik didni shakllantiradi, san'at asarlarini tushunish vaqadrigaetishni o'rgatadi, mehnatga hurmat va muhabbatni tarbiyalaydi, mehnat ko'nikmalarini egallashda yordam beradi. hozir badiiy bezak ishlariga, umuman ommaviy ko'rgazmali axborat vositalariga mehnatkashlarni. Shu jumladan, yosh avlodni g'oyaviy, ma'rifiy va estetik tarbiyalashning muhim omillari sifatidaqaralmoqda.Shu sababli mamlakatimizdagi korxona va muassasalarda, xususiy korxona, jamoaxo'jaliklari, oliy o'quv yurtlari va umumiy ta'lim

maktablarida shakli hamdamazmuni jihatdan xilma–xil plakatlar, stendlar, devoriy gazetalar va hokazolarni ko'rish mumkin. Ayni paytda bularning sifatigaqo'yilayotgan talablar ham ortib borayotir. Bu talablar badiiy bezash ishlariga bevosita daxldor kishilarni mazkur ishlarning ta'sirchanligini oshiradigan yangi vositalarni, yangi kompozitsion echimlarni topishga dav'at etmoqda.Ana shu boradagi ishlanishlar hozircha ma'lum bo'lgan va badiiy bezash ishlarida muvaffaqiyatli qo'llanayotgan nazariy asoslarni takomillashtirishda, yangi vositalardan oqilona foydalanishdao'z aksini topmoqda.

Asrlar davomidaxalqimizning bebaho ijod namunalaridan biri sifatida shakllanib kelayotgan naqqashlik chin ma'noda go'zallik yaratish san'atidir.

Hozirda pedagogika oliyo'quvyurtlarida amaliysan'atbo'yichakadrlartayyorlashsifatini oshirishuchun, avvalo, davlatstandartiva o'quvdasturlariqayta ishlandi; shuasosda Naqqoshlikfanidanyangidasturtuzildi.Mazkurdasturo'z oldiga quyidagi aniqmaqsadlarniqo'yadi:

- talabalarda naqqoshliksan'atitarixi, texnologiyasi, oddiynag'shnamunalaridantortibto yog'ochbuyumlarinibezashgacha bo'lganbilim, ko'nikma va malakalarnishakllantirish:
- naqqoshliksan'atinio'rganish orqaliularningijodiyqobiliyatlarinio'stirish;
- naqqoshlikdarslari asosida Sharq amaliysan'atininggo'zalligi, falsafiy, ruhiyva tarbiyaviyg'irralaribilantanishtirish;
- naqqoshliksan'atiningnazariyva amaliyjihatlarinichuquro'rgatish;
- kasb-hunarkollejlari, umumta'limmaktablariva qo'shimcha ta'limmuassalarida naqqoshliksan'atimazmunihamda mag'sadinyoritibberish;
- kasb-hunarta'limida naqqoshlikdanmustaqilishlashgaurgatish;
- usta va shogird odobihamda milliy an'analarnidavomettirishga urgatish;
- talabalarga axloqiy, g'oyaviy, mehnatva estetiktarbiyaberish.

**Ishning maqsadi.**

1. Bitiruv malakaviy ishini bajarish. Talabalarni estetik idrok qilish qobiliyatlarini o'stirish, ularni tabiat, san'at va hayotdagi go'zalliklarni idrok etishga o'rgatish.
2. Talabalarning estetik didini tarbiyalash, ularni go'zallikni baholay olish haqiqiy go'zallikni farqlay bilishga odatlantirish.
3. Talabalardagi ijodiylikni tarbiyalash va o'stirish.
4. Talabalarning badiiy fikr doirasini kengaytirish.
5. Rangshunoslik fanidan olgan bilimlarini amalda qo'llash.

**Tadqiqot obyekti.**Bitiruv malakaviy ishi uchun qo'yilgan pastanovka naqsh ishlash mavzusi asosida bajarilgan turli xil variantdagi eskizlar, qoralama ishlar vanaqsh ijod etgan rassomlarning asarlaridan reproduksiyalar. Amaliy ish jarayonida amaliy san'at texnologiyasi qonun-qoidalariga amal qilish kompozisiyada detallarning shakli fakturasini rangini amalda qo'llash.

**Ishning ilmiyligi.**Bitiruv malakaviy ishini bajarishda qalam tasvir qonuniyatlariga qat'iy amal qilish. Rangshunoslik qonunlari: rang koloriti gammasi, ranglarning to'yinganligi, narsa va buyumlarning shakli fakturasi kabi tomonlarini asosli ravishda topilishiga kata e'tibor qaratish. Ilmiylik prinsipi, shuningdek, yorug'-soya chiziqli va havo perspektivasi, rangshunoslik qonunlarini o'zlashtirishni nazarda tutadi.

**Bitiruv malakaviy ishidan olingan natija.**Mavzu asosida kompozisiya chizishda ketma-ketlik prinsipiga amal qilingan.Birinchi navbatda obyekt yoki pastanovka tanlanib, kuzatilib, o'rganilib tavsiya qilingan.Tayyorgarlik bosqichidan keyin kompozisiya asosiy holatda ko'chirilgan. Bitiruv malakaviy ishini chizishda rangshunoslik va rang texnologiyasining barcha qonun-qoidalariga amal qilingan holda ish bajarilgan.Kompozisiyada har qanday predmetning hajmi, shakli, materiali, fazodagi joylashuvi aniqlangan va kompozisiya markaziga bo'ysundirilgan.Shuningdek, naqqoshlik qoidalariga amal qilingan va ish jarayonida qo'llagan. Kompozisiyada bir nechta ranglar yig'indisi hamda ranglar garmoniyasini topishga erishdim.

## I-Bob.

## Amaliy san'atda badiiy bezash ishlarini tashkil etish.

### 1.1 BADIIYBEZASH ISHLARININGMAQSADI, MAZMUNI VA VAZIFALARI.

Insonuchunzarurbilimlarmiqyosi tobora kengayibborayotgan hozirgi sharoitda muayyanfaktlaryig'indisini o'zlashtirishbilancheklanibbo'lmaydi. SHuninguchuno'quvchilarga o'zbilimlarini mustaqil ravishda to'ldirib va boyitibborishni, o'ziningdiqqat–e'tiborini ilmiy va siyosiy axborotlarningengmuhimlariga qaratishni o'rganishkerak. Bu vazifa o'quvchilarningbadiiybezash ishlarini ta'lim–tarbiyajarayoni bilano'zviybog'liq holda kengaytirish va rivojlantirishni taqozo etadi.

Ma'lumki, bezaksan'atiningko'p turlari mehnat bilan omuxta bo'libketadi va shuninguchuno'quvchilarda ishga ijodiymunosabatni tarkib toptiradi, ularni ma'naviyjihatdanboyitadi.

Bezaksan'at sohasidagi hozirgi zamon hayotining turli sohalarini, har xil voqealarni tematikjihatdan to'la qamrab olishi lozim. Udavlatning tashqi va ichki siyosatini, xalqningmehnatdagi yutuqlarini, mamlakatning tarixiyo'tmishini, ilmiy, badiiy hayotidagi yangiliklarni, tabiatni va boshqalarni ifodalashkerak.
O'quvchi kunning ancha qismini maktabda o'tkazadi. O'quv yurtdagi butunmuhit uni go'zallikqonunlari asosida yashashga, hayotdagi rang-barang holatlarni ko'ra bilishga o'rgatishi kerak.

O'quvchi o'quv yurt binosiga, uningyonidagi uchastkaga o'yin hamda sport maydonchalariga qarab, ulardagi go'zallikni hisetishi, umumano'quv dargoxiningqiyofasi unda o'zi bilim oladiganmuhit haqida ijobiy tasavvur hosil qilishi lozim. Bunda puxta o'ylabchiroyli qilibbezatilgan va alohida e'tiborbilanqarab turiladigan tabiat burchagi, didbilan ishlov berilganyo'lka va gulzorlar, hovliga, kiraverishdagi memorial taxta, kosmosni zabt etish, mehnat, harbiyjasorat kabi mavzulardagi stendlar, binoningjoylashishi tasvirlangansxema va hokazolarkatta yordamberadi. Mana shularni hammasida mazkurbadiiybezashuslubi ko'zga yaqqol tashlanib turishi shart.

Bezaksan’atningbinoni bezatishga xizmat qiladigan asosiyyo’nalishlari - o’quv xonalarini, sport va majlislarzallarini, koridorlarni bezash, ko’rgazmalar tashkil etish, maktab teatri uchundekoratsiya ishlash, dekorativ – amaliysan’at buyumlari yasash, plakatlarchizish, turli axborot vositalarini tayyorlash va hokazolardan iboratdir.

Litsey, kollej, maktablarga kiraverishda unga nomi berilganshaxsningbyusti yoki portreti, darsjadvali, o’quvchilarning ijodiy ishlaridannamunalarko’zga tashlanib turishi kerak. Imkoni bo’lsa, mehnatda ibrat ko’rsatgan ota-onalarningrasmlari qo’yilganstendlari tayyorlash hammaqsadga muvofiqdir. Binoning harqaysi qavatini quyi, o’rta va yuqori sinflardagi o’quvchilarningyoshlariga mosqilibbezashma’qul.

Qaysi sinfo’quvchilari "hardoimbo’lsinquyosh!" shiori ostida rasmlarkonkursini o’tkazdilar. Rasmlarni asfaltga yoki tomosha zaliningpoliga to’shalgan linoleumustiga yoki oyoqqa o’rnatilgansinfdoskasiga chiziladi. Buyoshdagi bolalar "Nega shunday?", "Topa qoling!" kabi quvnoqo’yinlarni yoqtiradilar.

Yuqori sinfo’quvchilariningbadiiy ijodsohasidagi ishdoirasi kengayibboradi. Ularnaqqoshlik, ganch va yog’ocho’ymakorligi, mozaika, misgarlik va hokazolarbo’yicha har xil ishlarni bajaribdekorativ-amaliysan’atningkeyinroq va murakkabroq turlarini o’zlashtiribboradilar. Turli muammolarga doirmunozaralar, adabiykechalar, umummaktabbayramlarini o’tkazish, ko’rgazmalarni tayyorlash, devoriygazetalarchiqarish va badiiybezash ishlarini amalga oshirishyuqori sinfo’quvchilaridano’tkirdidlilik ixtirochilik va bilimdonlikni talabqiladi.

"Bolalarga, - debyozadi V.N. Polunina, harbir ishda ijodiyqatnashish imkonini berish, ularningfaoliyatini shoshilib, xaddan tashqari ortiqcha talabchanlikbilanbaholamaslik, ammo ishni sifatsizbajaraverishlariga hamyo’l qo’ymaslik, shogirdlarning taassurotini o’stirish va ularga o’z taassurotlarini ifodalashningqulayshakllarini topishda ko’maklashish lozim. Mana shularkichiko’smirlar va barcha yoshdagi bolalarda mustaqil fikrlashni

rivojlantirishning, o’zkuchiga ishonchni tarbiyalashningmuhim omillaridir. Bu ham asosiyvazifalarimizdanbiridir. Binobarin, bolaning ta’lim – tarbiyaviy ishlarjarayonida aktiv qatnashuvi hozirgi hamma pedagogikyo’nalishlarningboshmazmunidir".

Bugaplarbolalarni badiiybezash ishlariga jalbetishga hambevosita taalluqlidir. Mana shu ishlareng avvalo o’quvchilarningdarsdanbo’sh vaqtlarini samarali tashkil etishda, ularni birgalashib ishlashga, o’z ishlarining oqibat natijasini tasavvurqilishga o’rgatishda ko’maklashadi. Shuningdekbadiiybezash ishlari san’atiningbirnecha turlari sifatida o’sibkelayotgan insonga dunyoni tushuntirishda yordamberadi, uningyoshqalbiga oziqbaxshetadi, uni keng va turlicha fikrlashga odatlantiradi, xalqningma’naviymadaniyatiga yaqinlashtiradi, engmuhimi, mexnatga ijodkorlikbilanyondashishga o’rgatadi. Shuningdek, o’quvchilarda ahloqiy va fuqarolikfaolligini, vatanparvarlik hissini tarkib toptiradi.

Ilg’orlar tajribasidanko’rinadiki, badiiybezash ishlarida stendlar va stendli ko’rgazmalar tayyorlashengkatta o’rin tutadi. Stendga juda ko’p va har xil axborotlarsiG’ishi sababli ubinoni va uning teritoriyasini bezashda eng operativ element hisoblanadi. O’quvchilaruyushtiriladiganstendli ko’rgazmalarningmavzulari ma’suliyatli va turli-tumandir. Ularmasalan, "Eryuzida hayot saqlansin", "Kimdano’rnak olishkerak", "Men erkurrasini deyarli kezibchiqqanman", "hayotda bilimjangdagi miltiqdekzarur" va boshqalardan iboratdir.

Badiiybezash ishlari yuqori sinflardagi o’quvchilarbilan olibboriladigang’oyaviy-tarbiyaviy ishningengmuhimmaqsadlarini amalga oshrishga, ya’ni o’g’il va qizlarda dunyoqarash asoslarini, ijtimoiy aktivlikni, ongni intizomni, madaniy xulq-atvorni tarkib toptirishga, xuquqiybilimlarni, mehnatga ijtimoiymulkka munosabatni, kasb tanlashga intilishni shakllantirishga, politexnik va estetikbilimlardoirasini kengaytirishga, badiiyqobiliyatni o’stirishga xizmat qilishkerak.

Yuqori sinfo’quvchilari badiiy-amaliy ijodiningo’ziga xos xususiyati turmush tarzi normasiningbutunkompleksini, o’quv yurtning va birinchi galdi,

yuqori sinflarningqiyofasini ishorali badiiyyo'sinda gavdalantirishidir. Buningmuhimjihati shundaki, bino umumanyoshlarga mos optimistik, zavqli hissiyotni, ularning axloqiy aktivligini aksettiradiganruhda bezatilishi va ana shuruh yuqori sinflarqavatiga kiraverishdayoq hisetilishi lozim.

Dekorativ san'at vositalari orqali mana shukechalarning harbiri uchunkerakli muhit yaratilishi kecha nimaga bag'ishlanganligidan, uningmazmuni murakkabligidanqat'i nazar, o'quvchi uni chuquretishida katta yordamberadi.

harqandaymetodik vazifa singari badiiybezash ishlari hamprofessional aniqlikka va ijodiyyondashishga asoslanishi kerak. Professional o'quvchiningbadiiy izlanishini to'g'ri va konstruktiv yo'nalishga solsa, ijodiyyondashish, etukbadiiy xulosalarchiqarishga olibboradi.

Badiiybezash ishlarini tobora takomillashtiribborishestetik tarbiyaning tarkibiyqismi bo'lib, o'quvchilarningrassom-pedagograhbarligida o'quv yurt muhitini qayta qurishi kengaytirishda ijodiy aktivlikko'rsatishlari yanada muhimdir.

***1. Kompozitsiya.***

Tavsviriysan'atningbarcha turlari kabi badiiybezash ishlari hamkompozitsiyaningumumiyqonuniyatlaridankelibchiqqan holda amalga oshiriladi. Shuninguchun hambu ishlarbezakchi rassomdan etarlicha bilim va malakalarni talabqilishi bilanbirga doirkompozitsiyamasalalarini diqqat markazida tutishni taqazo etadi.

Kompozitsiya lotincha "kompositie" so'zidan olinib, to'qish, tuzish, joylashtirish, alohida qismlarni butunqilibbirlashtirishni anglatadi.

Badiiybezashsan'atida bajarilayotgan ishlarning ta'sirchanligini oshirishba'zankompozitsiyaningma'lumqoidalarini bo'zish hammumkin. Ko'pincha badiiybezak ishlarida qo'llanayotganyangi, ilgari ishlatilmaganmateriallardanfoydalanishda ma'lum originallikka erishishmaqsadida shundayqilinadi.

Badiiybezak ishlarida kompozitsiyaning asosanuchta: tekis, xajmli, kenglik va chuqurlikka ega bo'lgan turlari mavjud. Bularningbarchasiuyoki bug'oyani amalga oshirishda, qanadydirbirumumiysifat va belgilarga ega bo'ladi.

Frontal kompozitsiya–bu ikkita koordinatalarbo'yicha frontal tasvirni tashkil etishdemakdir. Frontal kompozitsiyaning xarakterli xususiyati unda xajmli elementlarni ishlatishningcheklanishi va shubilanbirpaytda, uningo'lchovlarini kattalashtirish imkoniyatlari ortibborishidir. Shuninguchun ayrimrel'efsimon tasvirlar (masalan, kandakorlik, yog'och hamgancho'ymakorligi va hokazolar) plastika qonuniyatlari asosida qurilsa ham, tekiskompozitsiyalar turiga kiradi.

Badiiybezash ishlariningko'pqismi, masalan, ko'rsatmali qurollar, devoriygazetalr, tematikstendlar, taklifnoma, tematik albom va hokazolarfrontal kompozitsiya asosida bajariladi.

Kompozitsiyaningqurilishi ma'lum ob'ektning vazifasi hammazmuniga, undanko'zlanganmaqsadga bog'liqbo'ladi. Kompozitsiyalarning asosiysxemalari quyidagilardan iborat:

Gorizontal kompozitsiya–bunda kompozitsiyaelementlarini gorizontal yuzaga joylashtiriladi, masalan, dala, shaharponoramasi va boshqalar.

Vertikal kompozitsiya aktiv, dinamikkompozitsiyabo'lib, yuqoriga o'sish, parvoz tasavvurini hosil qiladi; uningdetallari asosan tikchiziqbo'yicha joylashadi.

Dioganal kompozitsiya–uningqurilishi dinamik va shiddatli sxemalarga asoslanadi.

Uchburchakyoki piramidal kompozitsiya-bunda turg'un osoyishta holatga tayaniladi. Surat yuzasiningpastki qismi piramidaningnegizi hisoblanadi.

Badiiybezashsan'atiningfrontal kompozitsiyalarningmuhim xususiyatlaridanbiri ularningyupqa yuza tarzida ijro etilishidir. "Frontal kompozitsiya" termini frantso'zcha-frontale-yassi, ro'paradagi deganso'zdankelibchiqqan.

Frontal kompozitsiyaboshqa turkompozitsiyalardan hajmni, masofa va kenglikni berishi bilanfarqlanadi. Bu ikki o'lchamningbirligi butunkompozitsiyani

yaxlit ko’rishga imkonyaratadi. Real buyumlarning tasviri asaryuzasida shartli ravishda tasvirlanadi.

Frontal kompozitsiyaning tomoshabinga ta’siri birqancha omillarga bog’liqdir. Ulardanbiri kompozitsiyajoylashgankenglikning xususiyatlaridir.

Kenglik to’silganbo’lishi mumkin. Bularga o’quv binosi, o’qituvchilar xonasi va boshqalarkiradi. Xuddi shukompozitsiyaningo’zi ochiqjoyda, binodan tashqarida, maktabsahnida, ko’chada boshqacha badiiy taassurot paydo qiladi.

Bino intereridagi frontal kompozitsiyalarning taassuroti avvalo, binoning hajmi va shakliga bog’liqdir. Bundan tashqari, ular harqandayo’quv yurt binosida ko’puchraydigan turli hajmdagi jihozlar, masalan, mebellarqandillar, turli uskunalar, asboblar va boshqalarbilano’zaro birlikda ta’sirko’rsatadi. Shuningdek, binoningyorug’lik va rangdarajasi, hatto undagi harorat me’yori va intererning akustik xislatlari hamkatta rol o’ynaydi. Frontal ob’ektlardanba’zi turlari, masalan, tematik albomlar, tabriknomalar, yorliq va boshqalarularni saqlashningmunosibdarajada uyushtirilishini talabetadi.

Frontal kompozitsiyaga xos anchagina qonuniyatlar interer va ko’chadagi kompozitsiyalaruchunbir xildir. Biroqkeyingilarningba’zi bir tomonlari bor. Masalan, o’quv yurt teritoriyasi hamda binosini bezashga xizmat qiladiganmonumental shakllar hamma o’quvchilarga taalluqlidir. Demak, ularo’zmazmuni hamda shakliga ko’ra barcha yoshdagi o’quvchilarga mo’ljallanganbo’lishi kerak.

Binodan tashqaridagi plakatlar, chaqiriqlar, e’lonlarbino ichidagilarga qaraganda yiroqroq, ko’zga yaqqolroq tashlanadiganqilib tayyorlanishi kerak. Shuninguchunularningyog’inganchilikka va yorqinquyoshnurlariga chidamli materiallardan (asosanbo’yoqlar) tayyorlash lozim. Ularni puxta va qulayo’rnatishkerak.

hajmli kompozitsiya turli ko’rishnuqtalaridan idrokqilishga mo’ljallanganucho’lchovli formada bo’ladi. Masalan, ko’chadagi shakllar har xil pannolar, yodgorliklar va hokazolar. Ucho’lchovli kompozitsiyada formulalarning hajmdorligi va tektonikqonuniyatlari asosiyrol o’ynaydi.

Kenglik va chuqurlikka ega bo’lgankompozitsiyalar-tomoshabinboshliq ichiga kirayotganida, harakatda bo’lgan vaqtda idroketishga mo’ljallanganforma va elementlarningbir-biriga nisbat demakdir. Istirohat bog’lari (ba’zano’quv yurt tajriba uchastkasi), shuningdek, intererdan tashkil etilganko’rgazmalarbunga misol bo’la oladi.

Badiiybezashsan’ati asarlarining anchagina xususiyatlari bor. Asarlarning va vazifasiga muvofiqkompozitsiyaningbiror xususiyati bo’rttirilishi mumkin. Masalan, sport tematikasida dekorativ pannoda kompozitsiyadagi dinamikani ifodalash lozim.

Kompozitsiyao’z xususiyatlari bilanpirovardnatijada badiiybezash ishlariningyuksakbadiiyligini ta’minlaydigan asosbo’lib hizmat qiladi.

Gormonikbirlik tushunchasi o’zida anchagina aspektlarni mujassamlantiradi. Bizbuyumni yoki asarni ko’zatarekanmiz, avvalo uningumumiyko’rinishiga e’tiborberishimiz va bo’laklarni bir-biriga taqqoslaymiz.

Badiiybezaklarningbirbutunligi (yaxlitligi) kompozitsiyani tashkil etadiganbarcha qismlarningo’zaro bog’liqligidir. Elementlarninggarmonikbirligi o’zida kompozitsiyaning xususiyatlarini mujassamlantiradi. Buesa hamma turda kompozitsiyalarga xosdir. Lekin tekiskompozitsiyalarda fonga alohida e’tiborberiladi, chunki ukompozitsiyaga kiruvchi barcha elementlarni o’zaro bog’laydi.

Kompozitsiyalarninggarmonikyaxlitligida ranglar ham alohida ahamiyat kasbetadi. Ayniqsa, rang asosiyrol o’ynaydiganmozayka panno, vitrajlarda kompozitsiongarmoniyaga jiddiyqarash lozim. Shundagina asarningrangbirligi estetik ta’siretuvchi eng asosiy omillardanbiri bo’ladi.

Yaxlitlik tushunchasi kompozitsiyaelementlariningbir-biriga bevosita bo’ysunishi kabi tushunchalarbilanbogg’liqdir. Aytishmumkinki, bu tushunchalarmazmunjihatdanbir-biriga juda yaqin va bir xil qimmatga ega. Elementlarningbir-biriga bo’ysunishi qanadydirbir tomonlama mexanikbog’lanishnatijasi emas, albatta. Ufaqatgina kompozitsionzaminida bo’ladi.

Kompozitsiyaqonuniyatlaridan asossizchetlanish odatda bezash ishlari mazmunini ham, estetikmohiyatini hampasaytiradi. Chunki, masalan, ikkinchi darajali elementlarni o'ziga bo'ysindiruvchi asosiyelementga e'tiborini kuchaytirmay, asarning ta'sirchanligiga erishishqiyin.

Asosiy va ikkinchi darajali elementlarprintsipini san'atningbarcha turlarida ko'zatishmumkin. Masalan, arxitektura san'atida buprintsiplar oqilona qo'llab ajoyibbino va ansamblarbunyodetilgan. Rangtasvir, haykaltaroshlik va grafik asarlar hamo'zida kompozitsion va mazmunmarkaziga ega bo'lib, boshqa elementlarni hamo'ziga birlashtirishi kerak.

Agarkompozitsiyaelementlari tomonlarida bir-biriga nisbatanbir xil joylashsa, ularkompozitsionmuvozanatda bo'ladi.

Elementlaruncha ko'pbo'lmagan tasvir tekisligida kompozitsionmuvozanatni saqlash aytarli qiyinchilik tuG'dirmaydi. Unda elementlarni semmetrik tarzda tasvirlash va joylashtirishprintsipiga amal qilish, ya'ni elementlarni markaziyo'qdanbir xil o'zoqlikda, bir xil kattalikda tasvirlash asosiy talab hisoblanadi.

Kompozitsionelementlarning assimetrikbo'lishi badiiybezash ishlarida elementlarni qo'llashuchunma'lumqo'layliklarni yaratadi. Bunda kompozitsionmuvozanat markaziyo'qdankelibchiqmaydi, balki bunda kompozitsionmarkazuyoki bu tomonga ko'chirilganbo'ladi.

Tekis assimetrikkompozitsiyalarbir va birnecha elementlarzaminida quriladi. Buelementlarning xarakteri va o'zaro o'rinegallashi har xil bo'lishi mumkin.

Endi kompozitsiyada ishtiroketayotganelementlarsoniga qarabkompozitsionmuvozanatni saqlash variantlarini ko'ribchiqamiz.

1-variantda badiiybezakelementi gorizontal yoki vertikal holatda joylashgankartina tekisliginingo'rtasiga joylashadi. Bunga misol qilib aylana, oval va boshqa simmetrikshakllardagi ornamental va dekorativ elementlarni ko'rsatishmumkin.

2-variantda element uyoki bu tomonga hayol surib tasvirlanadi. Ayniqsa, manzarachi rassomlar ijodida bunga misol bo'luvchi etyud va kartinalarko'p. Shuningdek, harakatni tasvirlovchi kompozitsiyalarda hambu holni uchratishmumkin, ya'ni harakat yo'nalishi tasvirlangan tomonda ko'proqbo'shjoyqoldiriladi.

3-variantda element kartina tekisligningbir tomonga deyarli butunlaysurilganbo'ladi. Bundaysxemalarni badiiybezash ishlarida (stendlar, devoriygazetalar va hokazolarda) ko'pko'rishmumkin. Shuningdek, bunday variantlar tasviriysan'atninggrafika, kitobgrafikasi kabi turlarida hamqo'llanadi.

Kompozitsiyaning asosiymasalalaridanbiri kombinatsiyadir. Kombinatsiya asosida bir va birnecha elementlarningjoyini o'zgartirish orqali kompozitsiyaningyangidan-yangi ifodali variantlari tayyorlanadi.

1-kombinatsiya-kattaligi bir ikkita elementdan tashkil topgankompozitsionsxema. Busxemada ishlangan variantlardagi elementlaro'zaro raqobatlashayotgandek tus olib, tomoshabine'tiborini jalbqilish xususiyatiga ega. Badiiybezash ishlarida bundaysxemalarjuda osonbajariladi.

2-kombinatsiya-kattaligi ikki xil bo'lganelementlardan tashkil topgankompozitsionsxema. Bunda elementlarning, faqat o'lchamlari emas, balki rangi va fakturasi ham xar xil bo'lishi nazarda tutiladi.

Kompozitsiyayig'inchoq va ko'rinishi ta'sirchanbo'lishi uchunfonning turli-tumanligini qanday aniqlashmumkin? Avvalo kompozitsionmarkazini, unda ishtiroketayotganelementlarni kengyoki katta tomoniga yoki bo'shliqqa suriladi. Shundagina kompozitsiyamarkazini bo'rttirib turadi. Agarelementlarkartina tekisligini butunlayqamrab olsa, fondeyarli yoqoladi.

Elementlarni kompozitsionsxemada qiyshiq holatda joylashuvida hamrangtasvir, grafika dekorativ-amaliysan'at va badiiybezash ishlarida tez-tezfoydalaniladi.

3-kombinatsiya – birelementni ikkinchi element ustiga joylashtirib tasvirlanayotgankompozitsionsxema. Ko'pgina variantlarda quyidagi usul qo'llaniladi:

Kompozitsionsxemadagi katta element kichikelementningustida va aksincha tasvirlanadi. har ikki variantda hambuelementlarni rangjihatdan va ularning to'yinganlikdarajasi bo'yicha ajratiladi.

Birelementni ikkinchi element ustida tasvirlanishi rangtasvir va grafika san'atida kengqo'llaniladi. San'atningmazkur turlarida buusullarni qo'llash asardagi fazoviymuhitni, birinchi va ikkinchi plandagi predmetlar orasidagi masofani ifodalashda qo'l keladi. Badiiybezash ishlari 3 ta elementdan tashkil topganida undan hamqiziqarliroqkompozitsion echimlar hosil qilishmumkin. Bundayelementlar hamo'lchamli, hamjoylashishi bo'yicha kombinatsiyalanadi. Birkatta va birkichikelementningkombinatsiyalanishidankelibchiqadigankompozitsion echimlarbadiiybezash ishlarida juda ko'pqo'llaniladi.

Shakli har xil 3 ta elementdan tashkil topgankombinatsionsxemani bajarishga kirishishdan oldin harbirelementningmazmunidankelibchiqqan holda ularning asosiylarini rangi yoki boshqa sifati bilan ajratishga alohida e'tiborberishkerak.

Nihoyat, to'rt va undan ortiqelementlarningqo'shilishidan hamkompozitsion echimlar hosil qilinadi. Bunday hollarda to'g'ri kompozitsion hosil qilishuchun ishtiroketayotgan asosiyelementlarni to'g'ri topishmuhimdir. Ayni paytda qolganelementlar asosiyelement bilano'zviybog'lanishda bo'lishi kerakyoki aksincha qolganelementlar asosiyrol o'ynab, birelement ularni to'ldiruvchi, ikkinchi darajali element sifatida qo'llanishi mumkin.

Ma'lumki to'rt va undan ortiqelement bo'lgandekorativ panno eskizini mukammal kompozitsion echimini topish ancha murakkab vazifadir. Lekinbuelementlarni mazmunanbirgruppaga birlashtirish vazifani engillashtiradi.

Ma'lumkenglikka ega bo'lgankompozitsion echimlarda muvozanat masalanma'lummaqsad va ob'ektlardoirasi bilanchegaralanadi. Bunga bolalarbadiiy ijodiyoti namunalaridanko'rgazma tashkil etish, intererini, uning atrofidagi territoriyani (sport va o'yinmaydonchalarini, yo'lka va yashil zonalarni) planlashtirish. Shujoylarda plakatlaro'rnatish va hokazolarkiradi.

Kompozitsionmuvozanatni tordoirada tushunishyaramaydi. Bu, masalan, bino fasadi oldidagi yo'lkaningo'ng tomoniga uchta shchit o'rnatilganbo'lsa, chap tomonida hamshuncha shchit bo'lishi kerak, degangapemas. Bundanfarqli o'laroqyo'lkaningo'ng tomoniga uchta shchitni gorizontal holatda va chap tomoniga bitta transparant yoki dekorativ elementni tik holatda o'rnatishmumkin.

Baddiybezashsan'atida dinamiklik va turg'unlikbuyumlarningumumiyformasida ham, ularning tashkil etuvchi alohida-alohida elementlarning harakterida hamo'z ifodasini topadi.

Dinamik va turg'unkompozitsiyalar hamo'zqonuniyatlariga ega. Bezakchi rassomyoki xalqustasi biror ishga krishishdan oldino'zi bajaradigan vazifani yaqqol tasavvuretishi, o'z asaridagi kompozitsiyaningdinamikligi yoki turg'unligini-qaysi biri asosiyo'rin tutishini ko'z oldiga keltira olishi kerak. Bularo'rtasida qarama-qarshi ma'no kelibchiqishiga yo'l qo'ymasligi, ya'ni asosiy va ikkinchi darajali elementlarningmantiqiyuyg'unligiga erishish lozim.

Agarbajarilayotgankompozitsion ishda dinamiklik asosiyo'rin tutsa, hamohang turg'unelementlarkompozitsiyaning asosiyg'oyasini ifodalab turishi kerak.

Kvadrat va aylana shaklidagi elementlar turg'un xarakterkasbetadi. To'g'ri to'rtburchakda esa biroz harakat alomati bo'lib, to'g'ri to'rtburchakninggorizontal va vertikal tomonlariningnisbati qancha qisqaribborsa, harakat alomati shunchalik aktivlashadi.

Agar to'g'ri to'rtburchakningbo'laklari kichiklashayotgan tomonni balandligini hamqisqartiribborilsa, harakat yo'nalishi yanada konkretlashadi.

Dekorativ san'atda turg'unlik etakchi o'rinlardanbirini egallaydi. To'g'ri to'rtburchak, oval va aylanshakllaridagi kandakorlik, o'ymakorlik va naqqoshlikbuyumlari, shuningdek, badiiybezash ob'ektlari-stend, vitirina, plakat va shukabilarko'p hollarda tashqi turg'unlikka ega bo'ladi.

Bezakchi rassomlaro'z ijodida dinamikkompozitsiya vositalaridanko'pfoydalanadi. Dinamikkompozitsiyadeganda buyumningbo'laklari va ularningo'zaro miqdoriybog'lanishi tushuniladi. Bubog'lanish

ayrimplastikfirmalarning, tekis va hajmli narsalarningqurilishida ham, butunkompozitsiyastrukturasida hamko’rinadi.

Qadimgi me’morlaro’z asarlarida kompozitsiya vositalarini o’ta mahoratlikbilanqo’llashgan. Buxorodagi Ismoil Samoniymaqbarasi, Samarqanddagi Registon ansambli, Xivadagi Ismoil Xoji minorasi, Toshkentdagi Ko’kaldoshmadrasalari o’ziningo’ta mutanosibformalari, fusunkorligi bilanfikrimizni isbotlaydi.

Qadimgi Gretsiyarassomlari tabiatdagi hamma narsalarningmutanosibligiga alohida e’tiborberibuningshakl hosil qiluvchi qonuniyatlarini me’morlik, haykaltaroshlik, amaliysan’at va boshqa soxalardakengqo’llaganlar. Bundan tashqari ular tabiatdagi deyarli barcha narsalar asosida geometrikshakllaryotishini aniqlashgan.

O’lchamlarningmutanosibligi kenglik va chuqurlikka ega bo’lgankompozitsilarda hamqo’llaniladi, ayniqsa ukompozitsiyaningplanini tuzishda hisobga olinadi.

Bunda eng asosiymasala (ayniqsa dastlabki bosqichda) shchitlarning ishmaydoni va mutanosibligini aniqlashdir.

Dekorativ xarakterdagi xajmli buyumlarda jumladaneniningbo’yiga nisbati ko’pincha estetik vazifalr asosida hal etiladi. Ayni paytda ularningfunktsional vazifasi ham hisobga olinadi. Suv yoki boshqa sharbatlarsaqlashga mo’ljallanganko’za baland, cho’ziqpraportsiyaga ega bo’lishi kerak. Chunki past va chpaloqko’zadan idishga suv quyishqulaybo’lmaydi. Yoki taomqo’yishuchunmo’ljallangan tarelka yapaloqbo’lishi kerak va hokazo.

Klassiksan’atdankelibchiqkan "Oltinkesim" qonuniyati juda keng tarqalgan. Uningmoundan iboratki, butunni ikki notengbo’lakka ajratilganda kichik tomonningbo’yi katta tomonningeniga to’g’ri keladi.

Oltinkesimqonuni o’sibboruvchi sonlarqatorida aksetadi: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 13, 21, 34, 55, 89, 144 va h.k.

Bezaksan’ati ham "Oltinkesim" qoidasiga teng ishlatiladi. "Oltinkesim" proportsiyasi asosida bajarilganpanno hajmli garmonik taassurot qoldiradi.

Tasviriysan’atda kompozitsiyatuzishda kontrast va nyuans alohida diqqatga sazovordir.

Kontrast-kompozitsiyaningkengqo’llaniladigan vositalaridanbo’lib, dekorativ-amaliysan’atda hamda badiiybezash ishlarida juda kengqo’llaniladi.

Ma’lumki ba’zi temalar aktiv, kontrast echimni talabetadi. Shunday tema ustida ishlashjarayonida kontrastga murojaat etilmasa, ishnatijasi zerikarli, xira, ayni birpaytda g’oyani noto’g’ri ko’rsatadiganbo’libqoladi. Ba’zanesa elementlarni takrorlanishi sabali kontrast kompozitsiyaga mos tushmaydi. Ana shunday hollarda nyuansga ranglarningnozik tomonlarini ishlabchiqishga ahamiyat beriladi.

Kontrastning anchagina turlari mavjudbo’lib, ularning orasida hajmlarkontrasti sezilarli va ta’sirchanroqbo’ladi. Yonma-yonquyilgan ikkita buyumni ko’zatishda ularni solishtiribko’rishehtiyoji tug’iladi. Bu oddiygina solishtirsh, avvalo buyumningo’lchamlari hajmi va vazniga taalluqlidir. Agarsolishtirilayotganbubuyumlarning xajmi bir xil bo’lsa, ular "raqobatlashayotgandek" tuyo’ladi, biri ikkinchisidansezilarli darajada katta bo’lsa, kontrastlik hosil bo’ladi.

hajmlarkontrasti-kompozitsiyaning ta’sirchanli-gini ta’minlovchi vositalardanbiri.

Grafikyo’sinda bajarilgan tekiskompozitsiyalarda kontrast boshqacha tus oladi: Oqfondagi qora element maksimal kontrast beradi. Badiiy amaliyotda ana shuo’ta kontrastli keng tarqalgan. Fikrimizningdalili sifatida oqqog’ozga qora tushbilan ishlanganrasmlarni, jurnallar va kitoblarning ilyustratsiyalarni eslashkifoya.

Kontrast masalasiga, faqat nuqtai nazardanyondashishyaramaydi. Uning ahamiyati texnikestetika moslamalari bilanbog’liqbuyumlarningfunktsionalmohiyati va vazifasidankelibchiqqan holda aksettiriladi.

Odatda kontrastni bir vaqtda rangnozikligi (nyuans) to’ldiribboradi. Kompozitsiyaningbu ikki vositasidanfoydalanishyuksakbadiiysaviyadagi asarlaryaratishning asosiyzaminlaridanbiri sifatida xizmat qiladi.

Ranglardagi kontrast va nyuanssan'atiningbarcha turlariga taalluqlidir. Unozikchiziqlar, qalamsurat, ranglarni ustma-ust qo'yish hisobiga to'yintiribboruvchi akvarel grafikasi yoki haqiqiyplastik vositali haykaltaroshliksan'ati bo'lishi mumkin.

San'atning hamma turlarida (mo'zika, teatr va kinoda hamkontrastliknyuanslarbilan to'ldiribboriladi).

Kontrast va nyuansbir-biri bilano'zaro qonuniybog'lanishga ega. Buqonuniybog'lanishga amal qilish asarlarni qiziqarli va printsipial to'g'ri kompozitsionqilibyaratishga yordamberadi.

Ranglarnozikligini ta'minlashga odatda ishningyakuniyqismida kirishiladi. Lekin haqiqiyusta rassomkompozitsiyag'oyasini ishlabchiqishjarayonidayoqkontrast va nyuansning xarakteri va darajasini hal qilib oladi. Dekorativ-amaliysan'atning ayrim turlarida boshqacha yo'l hammumkinemas.

Mozaika yoki vitrajni boshlashda avtoro'z ixtiyorida qandaymateriallar, ya'ni qancha kontrast, qancha nokontrast rangli bo'yoqlarborligini biladi.

Yguqorida bayonetilganlardan xulosa qilibshuni aytishmumkinki, maktablarda amalga oshirilayotganbadiiybezash ishlarining hammasida ranglarning, formalar va fakturalarningbo'lishi va ayni birpaytda ulardagi nozikfarqlarni to'g'ri belgilashmuhim ahamiyatga egadir.

Badiiybezash ishlarida metrik takrorlanish alohida rol o'ynaydi.

Kompozitsiyadagi metrik takrorlanish-asarda qandaydirelementningbirnecha marta ishlanishidir. Takrorlanishrassombajarayotganqaysidirqismda yoki birdekorativ zveno aksetishi mumkin. Ularning har xil takrorlanishi qatorqonuniyatlarga asoslanadi va buqonuniyatlareng avval takrorlanayotganelementlarningformasi hamda kattaligiga bog'liqdir.

Metrik takrorlanishni san'atningbarcha turlarida uchratishmumkin va usan'atning ayrim turlarida kompozitsiyaningbelgilovchi omili bo'lib xizmat qiladi.

Bezaksan’atda metrik takrorlanishkengqo’llanadi. U ayniqsa, badiiynaqsh va o’ymakorlik asarlarida aniq ifodalanadi. Agar takrorlanishsoni kambo’lsa, asargo’yoki tugallanmagandek tuyo’ladi. Chunki 2-3 marta takrorlanganelementlar alohida idroketiladi. Metrik takrorlanishshunchaki estetik tashkil etilgan voqea bo’lishi hammumkin. Bunda asardagi elementlar alohida emas, balki birqarashda umumiybo’lib, o’zaro hamohang idroketiladi. Bunga esa takrorlanishsoni olti-etti martadan oshgandagina erishishmumkin.

Yassi va hajmli elementlar takrorlanishining xususiyati shuki, kishi ularni turlicha idroketadi. Yassi elementlardanfaro’laroq hajmli elementlarningtakrorlanishi kammiqdorda bo’lsa ham oldinroqko’zga tashlanadi. Buningsababi shundaki, hajmli formalarmurakkabroqbo’lib, bizga perspektiv qisqarishda ko’rinadi. hajmli, kenglik va chuqurlikka ega bo’lganqurilmalardoimo tekiselementlarga nisbatan aktivroqko’rinishga ega bo’ladi.

Ritmik takrorlanishqoidasi ba’zan ongli ravishda bo’ziladi. Masalan, ikki parallel chiziqbilanchegaralanuvchi badiiynaqshda ma’lum takrorlanishdanso’ngqandaydiryangi element qo’shishehtiyoji tug’iladi. Buehtiyojshaqshningbadiiy va estetikqimmatini oshiradi.

Bundayo’lchovli elementlarningketma-ket takrorlanishi ritmdeb ataladi. U asta-sekinsonjihatdano’zgaribborishni ifodalaydigano’ziga xosqonuniyat hisoblanadi.

Ritmikqatorda yassi va hajmli shakllar, strukturali hamda boshqa qurilmalarbo’ysunadi.

Dinamiklik va muvozanat tushunchalari bilanbog’liqritmikqatorformalarning harakatini ochibberadi.

Arifmetikyoki geometrikprogressiya asosida qurilgan harakatlarsistemasidagi darajalarni lozimbo’lsa, kuchaytirishyoki pasaytirish imkonini beradi. Arifmetikprogressiya asosida qurilganritmikqatorundagi elementlarningfarqlari doimiysaqlanishi bilan xarakterlanadi.

Ritmqonuniyatlarini bilish ta’sirchankompozitsiyatuzishda ritmikko’rinishning xarakterini to’g’ri tanlashga katta yordamberadi.

## 1.2 Naqoshliksan'atininginsonhayotidagitutgano'rni.

Amaliysan'atnio'qitishnito'g'ri, hartomonlama takomillashganva jahon andozalariga mosholda tashkiletishbugungikunningdolzarbmasalalaridanbiribo'libqolmoqda. Naqqoshlikkursio'z oldiga quyidagimaqsadva vazifalarniqo'yadi.

-Naqqoshliksan'atininazariyva amaliyjihatdano'rganish;

-talabalarga naqqoshlikningyuzaga kelishi, texnologiyasiva uningrivojlanishtarixihaqida ma'lumotberish;

-Naqqoshliksan'atinio'rganish orqalitalabalarningijodiyqobiliyatinio'stirish, dunyoqarashinishakllantirish;

-Naqqoshliksan'atinio'rganishtalabalarga milliyqadriyatlarimiz, Sharq amaliysan'atininggo'zallagini, falsafiy, ruhiyva tarbiyaviyqirralarinio'rgatish;

-talabalarga axloqiy, g'oyaviyva estetiktarbiyaberish;

-umumiyta'limva qo'shimcha ta'limsohalarida Naqqoshliko'qitishmetodikasihamda maqsadini ochibberish;

- talabalarniumumiyta'limda va qo'shimcha ta'limda mustaqilishlashga o'rgatish;

- usta-shogirdlik odobiva an'analarnidavomettirishnio'rganish;

Naqqoshlikmashg’ulotlarini olibborishjarayonida quyidagilarga e’tiborqaratishlozim;

-talabalarningqiziqishi, qobiliyativa iqtidorinie’tiborga olish;

-o’quvyurtiningmoddiybazasinihisobga olishva boshqalar;

Naqqoshlikmashg’ulotlarining oldiga qo’yganmaqsadva vazifalarini amalga oshirishuchunmustaqildarslarham alohida ahamiyatga ega.

Naqqoshlikmashg’ulotlariningyanada samaralitashkiletishuchunquyidagilarga amalqilishlozimdir:

-darslarda yangipedagogiktexnologiyalardano’rinlifoydalanish;

-ta’limningzamonaviytexnikaviyvositalariniqo’llash;

-darslarda xalq og’zakiijodinamunalari, usta-shogird an’analaridankengfoydalanish;

-talabalarishlaridanko’rgazmalarqilish;

-naqqoshlikda ishlatiladigan atamalarninglug’aviyma’nosini atroflicha o’rganish.

*Naqqoshlik* – o’zbek xalq amaliybezaksan’atiningengjozibaliva nafisto’rlaridanbiridir! Binobarin xalq amaliysan’atiningbarcha turlarininaqshelementlarisiztasavvuretishqiyin. Naqsh – gul, bezakdeganma’noni anglatib, amaliysan’at asarlariga chiroybag’ishlaydi. Bundaybezakelementlariesa, tabiatda uchrovchio’simlikdunyosi, xayvonlartasviriva koinotjismlariningengsodda ko’rinishlari orqali aksettiriladi.

Naqqoshliksan’atiqadimdaninsonningmoddiymuxitinigo’zallashtirishga, estetikboyitishga xizmatqilibkelgan. Xalqustalaritomonidanjilolanganme’moriy obidalar, turarjoyva ro’zg’orbuyumlarigo’zallikniidroketishimiz, ma’naviyatimizva o’zligimiznichuqurroq anglashimizborasida bebahodir.

Ota-bobolarimizningbizga qoldirganma’naviymerosicheksiz. Shulardanbirisan’at asarlaridir. Xalq amaliysan’ati asarlarinafaqatbezakdorligi, chiroylishakllari, qadimiyligihamda chuqurfalsafiy, tarbiyaviy, ruhiy xususiyatlaribilano’ziningyuksakqiymatiga ega.

Farzandlariga yoshlikchog'laridanhunaro'rgatibkelgan xalqimizo'zining an'analaridan, urf-odatlaridan, turlima'naviymeroslaridanunumlifoydalanibkeladi. Bugungikunimizda ham xalqimizning an'analarini, usta va shogird asosida yoshlarimizga hunaro'rgatishga katta e'tiborberilmoqda.

Ayniqsa oliyta'limmuassasalarini, turlisan'at akademiklitseyva kasb-xunarkollejlarda yoshlarningkasb-hunarfaoliyatibilanshug'ullanishlariuchunzarurshart-sharoitlarnivujudga keltirish, ularnimutaxassisliklaryo'nalishlaribo'yicha nazariyva amaliybilimlarniberishuchunsamaralimehnatqilinmoqda. Shuningdek, buyukma'naviyatimiznitiklashva uniyanada yuksaltirishyo'lida ta'lim-tarbiyatiziminiyuksaltirishmuxim ahamiyatga egadir.

Naqqoshliksan'atihamhunar, hamsan'atdir. Buva bukabisan'atturlariniegallashyoshlarningbadiiymadaniyatini, tafakkurini, dunyoqarashiva estetikdidinirivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Naqqoshliksan'ati asirlardavomida ajdodlarimiztomonidanko'zqorachig'iday asrab-avaylabkelindiva kelinmoqda. Hozirgiyosh avloduniqabulqilib olarkan, o'z oldida turganmas'uliyatnibirdaqiqa hamunutmasligilozim. Xozirgikunda Respublikamizda ta'lim-tarbiyaninjaxonstandartlaritalabdarajasida bo'lishi aloxida axamiyatga egadir.

"Xalqbadiiy xunarmandchiligiva amaliysan'atiningyanada rivojlantirishnidavlatyo'libilanqo'llab-quvvatlashchora tadbirlarito'g'risida"giPrezidentiningFarmonibirnecha muxim, dolzarbmasalalarnio'zichiga olishibilanbirgalikda

- ta'lim – tarbiyatiziminitubdanislohqilish, unizamontalabidarajasiga ko'tarish, milliykadrlartayyorlashningyangitiziminiparpo qilish, kelajakuchunbarkamol avlodnitarbiyalashdaniborat.

Bugungikunimizda amaliysan'atustalariningyangi avlodlarinitarbiyalash, ularningbarkamollikka erishishlariyo'lida barcha sharoitlarmavjud.

Xalq amaliysan'atidan olibborilayotgano'quvmashg'ulotlarbo'lajakmuallimlarnihartomonlama etuk, jahon

andozasiga javobbera oladiganmutaxassislarqilibtayyorlashga, qolaversa maktabo’quvchilarini xozirgizamontalabdarajasiga javobbera oladiganqilibtarbiyalashda muhimo’rinniegallaydi. Shuningdekbusohada yangio’quvrejalar, dasturlar, leksiyakurslari, o’quvqo’llanma va darsliklarniyaratishmuhim ahamiyatnikasbetadi.

Etiboringizga xavola etilayotgano’quvmetodikqo’llanma “Naqqoshlik” faniuchunchopetilgandasturmazmunlari asosida yozildi. Qo’llanmaningharbirmavzusimatni (foto va chizmalar) yozma ishvariantnamunalari, naqqoshlikka doir atamalarizohlilug’ativa adabiyotlarro’yxatibilanbirgalikda berilgan.

“Naqqoshlik” o’quvmetodikqo’llanmasining asosiymaqsadisizyoshlarniqadimiyva maftunkornaqqoshliksirlaridanboxabaretib, ustozva shogirdmilliyan’analarinidavometishiga, naqshkompozitsiyalarinimustaqilravishda tuzish orqaliularnimosravishda qo’llay olishqoidalarinio’rgatishga qaratilgan.

***Naqqoshlikmaktablariva ularninignamoyondalari.***

Naqqoshliksan’atibarcha amaliysan’atturlariningtarkibiyqismio’laroq, O’rta Osiyo xalqlari orasida o’ziningnafisshakllari, rangintovlanishihamda ramziyma’nolariga boyligibilanqadimdankengrivojlanibkelmoqda.

Ma’lumkivatanimizniko’rkiga ko’rkqo’shibturganSamarqand, Buxoro, Toshkent, Xorazmkabishaharlardagiko’hna obidalarganchkorlik, yog’ocho’ymakorligi, sangtaroshlik, naqqoshlik, koshinkorliknamunalaribilano’ziga xosravishda bezatilgan .

Ulardagibetakrornaqshbezaklariniko’zatarekanmiz, ijodkorbo’yoqlar orqalishakllarniqanchalarnafisifodalay olganidan xayratga tushamiz. Shuningdek, tarixiyBaqtriya, Sug’d, Xorazm, Shoshkabihududlardantopilganbezakli ashyolarningo’ta qadimiyligiham, insoniyatninggo’zallik olamiga qanchalarintiqyashaganligidandalolatberadi.

Tarixdanharbirdavrnaqqoshliksan’atiningrivojiga o’ziningsalmoqlihissasiniqo’shib, uningyanada rivojlanib, taraqiyetishiga zaminyaratibkelgan. SurxandaryodagiFayoz – tepa (I-II asr). Dalvarzin-tepa (II-asr) . Xorazmdagituproq – qal’a (III-asr) devorlarihamturlirasmva naqshlarbilanbezatilganligibizga ma’lum. VI – VIII asrlarga oid Afrosiyobva Varaxsha saroylariningdevoriysuvratqoldiqlariesa birmuncha yaxshisaqlanibqolgan. Ajdodlarimizbukabidevoriyrasmlarda : insoniylik, baxt ona tabiatga cheksizmunabbat, shodlik, mehrva yovo’zlikkabisifatlarnirangva chiziqlaryordamida unso’ztovushlar orqaliifodalashgan.

VIII asrningboshlarida O’rta Osiyoga islommadaniyatiningkiribkelishi, badiiybezak – naqqoshliksan’atiningyanada rivojlanishiga sababbo’ldi. Maxobatlirasmlardagijonlimavjudotlaro’rninitabiattasvirlari, o’simliksimonva geometrikelementlarishtirokidaginaqshnamunalariegalladi.
Arabyozuvlario’zlashtirilib, bezakli (epigrafika) uslubpaydo bo’ldi.

IX asrlarda ganchkorlik, yog’ocho’ymakorligi, naqqoshlik, g’ishtterish, kitobbezagisan’atlariyanada rivojlandi. Buyuk allomalar, Beruniy, IbnSino, MahmudQoshg’ariyva boshqalarningilmiy, tibbiy, ma’naviyhamda qur’on oyatlarizarxalnaqshlarbilanbezatildi. Naqqoshlikda turlishakllar, gulelementlariva rangtuslariningramziyfalsafiyma’nolarikengroqifodalana boshlandi:
Kvadrat – abadiylik, mustaxkamlik .
Quyosh – hayotramzi.
Zirkguli (gulsafsar) osoyishtalikva o’zoqumr.
Olma – muxabbatramzi.
Sher – mardlik, adolatva kuchlilikramzi.
Xumo – baxtkeltiruvchiqush.
Yashilrang – ona zamin.
Havo rang – musaffo osmon.
O’rta Osiyoga bostiribkelganChingizxon (XIII asr) qo’shinlarimadaniyhayotnibirmuncha izdanchiqardi.

Temurva Temuriylardavriga kelibesa ilmu-fan, madaniyatva san'atkeskinrivojlandi. Ko'plabtarixiyinshoatlarqurilibularkoshinpazlik, unvonliserhashamyozuvlarva turlio'yma naqshlarbilanbezatildi.

Nusxa ko'chirish (xattotlik) kitobat (minatyura) san'atlariyanada rivojtopdi. MirakNaqqosh, KamoliddinBehzod , MahmudMo'zahhibkabiko'plabnaqqosh – musavvirlar; AbdurahmonJomiy, AlisherNavoiy, Amir XusravDehlaviy, NizomiyGanjaviyva ko'plabbuyukzotlarning asarlarini ajoyibtasvirva naqshlarbilanbezaganlar.

XVI-XVII asrlarda Buxorodagi Abdulazizxonmadrasasi (XVI asr) Balandmasjid (XVI asr) Xo'ja Zayniddin xonaqosi (XVI asr) SamarqanddagiTillaqorimadrasasi (XVII asr) va Zarxalnaqshlar (kundaltexnikasi) bilanbezatildi. Buusul "mag'zisoxta" debhamyuritiladi.

Naqqoshlikda lojuvard, yashil , qizil, tilla halbo'yoqtuslarinio'zaro bog'lanishi asosidagi "turunj" namoyon, girix usullaridantashkiltopgannaqshnamunalariko'plabishlangan.

Naqqoshliksan'atida o'ziga xosnaqshmaktablarishakllana boshlandi. Ko'plab xalqustalari etishibchiqibfaoliyatko'rsatdilar. XX asrboshlarida naqqoshustalar: OlimjonQosimjonov, usta Sherali Xoji, RaufNazarov, ustazoda YoqubjonRaupov, Vakilva SobirIsaevlarToshkentdagiRomanovlarsaroyini, hozirgi xalq amaliysan'atimo'zeyibinosini (sobiqPolovtsevuyini) va boshqa binolarnisharqona naqshnamunalaribilanbezadilar. 1947 yilda quribbitkazilganO'zbekistonDavlat opera va baletkatta teatribinosiningbezakishlarida usta Vakilva SobirIsaevlar, YoqubjonRaupov, OlimjonQosimjonov, JalilHakimovlarsamaralimehnatqildilar. Teatrbinosini 1966 yilda qayta ta'mirlashishlarida hammohirusta JalilHakimovning xizmatlarikatta bo'ldi.

Yanginaqshkompozitsiyalarini odatda naqqoshustalarchizibberadilar. Ular xalq amaliysan'atiturlariuchunchiziluvchinaqshlarningkompozitsiontuzilishini, chizish, o'yish, tikishusullariva pardozberishqoidalariniyaxshibilganlar. Naqqoshustalarbirvaqtningo'zida birnecha hunarturlarinihamegallabborganlar.

Masalan: Toshkentlikpargoriusta OlimjonQosimjonov, naqqoshJalilHakimovlaryog’ocho’ymakorligini, Xivalik Abdulla Boltaevnaqqoshlik, koshinpazlik, misgarlikkabihunarturlarida erkinijodqila olganlar.

Handasiynaqshkompozitsiyalari, girihlarnito’zuvchiustalarninaqqoshlikda girihkor, katta ustalardeb atashgan. Geometriknaqqoshlarnigumbazmehrobva turli assimetrikshakllarda qo’llabishlash ancha murakkabishsanaladi.

O’zbekistonda naqqoshliksan’atiningo’ziga xosbirnecha maktablarimavjudbo’lib, ular XX asrningo’rtalarida qayta shakllanibyanada rivojlandi.

Toshkentnaqqoshlikmaktabio’ziga xosuslubga ega. Buuslubda ishlangannaqshlarrangtuslariningnozikligi, yashilhavo ranghamda oltinsimonjigarrangkoloritlarda ishlanishibilan ajralibturadi. Shuningdek, naqshelementlarining xilma-xilligipardozusullariningko’proqtarg’iltortishtexnikasibilanbajarilishio’ziga xosdir.

ToshkentnaqqoshlikmaktabiningnamoyondalariSheraliHojiHasanov, Vakilva SobirIsaevlar , OlimjonQosimjonov, YoqubjonRaupov, JalilHakimov, ToirTo’xtaxo’jaev , MahmudTo’raev, KomilKarimovva AnvarIlxomovlardir.

Farg’ona naqqoshlikmaktabininguslubitojiknamunalariga o’xshabketadi. Naqshkompozitsiyalarida ortiqcha shaklyasovchilarisiz, zaminbo’shliqlariislimiygulva novda shakllaribilanmohirona to’ldiriladi. Farg’ona naqshlariga to’qroq, qarama-qarshi (kontrast) ranglarjilvasiulug’vorlikbag’ishlaydi. Gulva bargelementlariningpardozlariko’proq edirma uslubida bajariladi. Farg’ona naqqoshlikmaktabihaqida gapketganda Qo’qonliknaqqoshustazodalarnomlarinifaxrbilantilga olishmumkin. UlarNorqo’ziNurmatov, SaidmahmudNorqo’ziev, SaidahmadMahmudovlardir. Mustaqilligimizningilkyillarida o’zining 80 yoshlikto’ylarininishonlab, O’zbekistonda xizmatko’rsatgansan’at arbobiunvonini olganSaidahmadMahmudovningko’plabshogirtlaribor.

Xorazmnaqqoshlikmaktabininghamo’ziga xosuslubimavjud. Xorazmnaqshlariko’proqnovda ishtirokidagi aylana spiralsimonmurakkabko’rinishdaginaqshlardaniborat. Xorazmnaqshlariniturlanishida uchva to’rt xilrangtuslariishtiroketib, naqshzaminlarihavorang-yashilnovdalar oq; rangda pardoziesa qora rangda bo’ladi.

Xorazmnaqshlarida islimiyegiluvchanmadohilshakllariko’plabuchraydi. Xorazmnaqqoshlikmaktabinamoyondalari Abdulla Boltaev, Xo’janiyozSaidniyozov, EshmurodovSofoev, aka-uka Vafo va Bolta Mirzaevlar, Ro’zimatMasharipovva boshqalardir.

Buxoro naqqoshlikmaktabiningishuslublarinaqshkompozitsiyalariningmukammalva jozibadorligi, giriho’simliksimon, aralashnaqshnamunalariningyorqinranglarda ishlanishibilan xarakterlidir. Buxoro naqshlarida ko’proqnamoyonnaqshkompozitsiyalarishuningdekkosamon, kitoba mexrobshaklinaqshlariga xosnamunalarko’plabishlanadi.

SamarqandnaqshlariToshkent, Farg’ona naqshlariga o’xshabketadi. Samarqandnaqshlarida zangori-yashilrangtuslariko’plabqo’llaniladi. Naqshkompozitsiyalaridano’simliksimonmurakkabgirihturlari alohida joziba kashfetadi. Samarqandnaqshturlarida edirma-pardozusullarikengqo’llaniladi. Bunaqqoshlikmaktabningnomoyondalariga: usta Raxmon, usta Jamoliddin, usta Sharif, usta Aminjon, usta Mahmudva boshqalarkiradi.

**Naqqoshlikda ishlatiladigan asbob-uskunalarva materiallar.**

Naqqoshlikda ko’plabmaterialva asboblarishlatiladi. Naqshchizishuchun oqqog’oz, yumshoqqora qalam, chizg’ichva o’chirg’ich. Bo’yoqturlaridanguash, akvarel, moybo’yoqlari, suvidishva ranglarniqorishuchunidishchalar. Turlinomerlardagimo’yqalamlar, pargor, shaffofqog’ozi, kumushva tilla halkukuni, xoka, nina, duradgorlik elimi, bo’r, alif, lakva hokazolarkerakbo’ladi.

Ularningishlatilishiniva ahamiyatlaribilantanishaylik. Naqshlarnibo’yashva ularga pardozberishda bo’rsiq, suvsar,

olmaxonkabihayvonlarningyungidantayyorlanganmayinmo'yqalamlarishlatiladi. Mayda qil-qalamlarniuchiingichkaligisabablinaqshdaginozikjoylarniishlashda qulayliktug'diradi. Naqqoshustalarzarurattug'ilsa yirikroqmo'yqalamlarniiplarbilanbo'libbog'laganholda kichiklashtiribishlatadilar.

***Mo'yqalamturlari:***

*Mo'yqalam*– naqshlarningzaminlarini, shaklyuzalarini, gul, novda elementlarinibo'yashda ishlatiladi.

*Obiqalam* – naqqoshlikda obitortishnaqshyo'llariga suvtortishdeganma'noni anglatadi. Obimo'yqalamyakka bandlitanobchiziqlarini oqbo'yoqbilanchizishda va mayda gulshakllariniranglashda ishlatiladi.

*Pardozqalam* – gulqalam, targ'ilqalam, mayda qillikmo'yqalambo'lib, gulnovda, bargva boshqa shakllarninozikchiziqlarbilanchizilib, targ'ilberishda ishlatiladi.

*Chakma qalam* – naqshlardagichegara mazmunidagibo'yalganqora chiziqlarustiga qo'yiluvchito'rtko'zchakma tomchilariniberishda ishlatiladi. Chakma qalamnicho'pdan, uchigugurtcho'pidaningichkaroqyo'nibyasaladi. To'rtko'zchakma tomchilariniuchito'mtoqroqmayda mo'yqalamlaryordamida qo'ysa hambo'ladi.

Mo'yqalamlarningyaxshisaqlanishiuchunularniishlatibbo'lingachyaxshilabyuvilibqalamdonga yokimaxsustirgakka qo'yiladi.

Belcha (shpatel) – buyumyokinaqshchiziluvchibiron-birsathyuzasinimaxsusqorishma surtibsilliqlashda ishlatiladi. Belchalarkatta o'rtacha va kichikturlardaniboratbo'ladi.

***Bo'yoqturlari:***

Naqshlarnibo'yashda moylitempera va asosansuvlibo'yoqlardankengfoydalaniladi. Suvlibo'yoqlarga guash, akvarel, emulsiya, kukunholidagiquruqbo'yoqlarkiradi. Naqqoshlikda engko'pishlatiladigan oqrangtusibo'lib, uboshqa bo'yoqturlaribilan aralashtirilibishlatiladi.

*Qog'ozlar* – naqqoshlikda oqchizma qog'ozikalka va millimetrovka qog'ozlaridanfoydalaniladi. Naqshchizishningboshlang'ichdavrlarida katakdaftariva chizmachilik albomlaridanfoydalaniladi.

Katta naqsheskizlarinitayyorlashda millimetrovka qog'oziishlatiladi. Bukabieskizlardankalka-shaffof (xitoy) qog'oziga nusxa olinibulgi (trafaret) tayyorlanadi.

Qalamva o'chirg'ich – naqshchizmalarinichiroyliva ravonchizilishida katta ahamiyatga ega. Chizganda va o'chirganda qog'ozyuzasinititilibketmasligiuchunsifatlio'rtacha yumshoqlikdagiqalamva o'chirg'ichlardanfoydalanishkerak. Titilibketganqog'ozyuzalariga bo'yoqtuslariniberish, sifatinibo'zadi. Albatta chizmalarniqoralama eskizlaryordamida bajarib, bo'yabpardozlashuchuntoza qog'ozga nusxa ko'chiribishlanganima'qul. Qalambilannaqshchizishda aniqlikbilanchizishkerak.

Tsirkul (pargor) – aylanalarishtirokidagi oddiyva murakkabgeometriknaqshlarnichizishda ishlatiladi.

Aylana-panjarasimonnaqshlarniko'proqchizuvchiustalarni amaliysan'atda pargoriustalardeb atashadi.

Nina-shaffofqog'oziga chizilgannaqshnusxalariniteshib axtalartayyorlashda qo'lkeladi.

Pista ko'mirchala yonganyog'ochbo'laklaribo'lib, undan xoka tayyorlanadi. Xokani axta (trafaret) ustidanyurgizibnusxa tushiriladi.

Jilvirqog'oz. Jilvirqog'ozyog'ochbuyumlarininaqshlashga tayyorlashda ularnisilliqlashuchunishlatiladi.

Tilla va kumushhallar-sariq, jezva alyuminningkukunlaribo'lib, yog'ochmuyumlarininaqshlashda umumiygruntvazifasida berilib, yog'ochbuyumlarininaqshlashda umumiygruntvazifasida berilibhamishlanadi. Naqshlarbundayusulda ishlanganda hallanganbuyumustiga to'g'ridan-to'g'rinaqshkompozitsiyasitushirilibsiyoh-qalamtortiladi.

Naqshningqo'shbandlarigul, novda va ayrimhoshiyalarnimana shuhaldagifonda qoldirilishimumkin.

Naqshlarnibundayusulda ishlashqadimdanqo'llanibkelinadi. Tilla va kumushhallarnidaraxtva duradgorlik elimlariga qorilgan. Hozirda ularniPVA kleyiga qorishmumkin.

Shpaklyovka – yuzalarninaqshlashdan oldinsirtnitekislashuchunsuriladiganquyuqmassa. Shpaklyovka tayyorlashuchunduradgorlik elimi, mayda bo'r (mel), alifmoykerakbo'ladi.

***Ustoz odobi, shogird odobi.***

O'zbekiston xalqlarinimgtarixi, qadriyatlari, ilm-fan, madaniyatdurdonalarinihartomonlama ilmiyo'rganishva taxlilqilishg'oyatmuximdir. Respublikamiz xukumatiningqator xujjatlariVatamimizninghartomonlamajaxon andozalari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiyaberishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliysan'atimiznamunalaridan. Ota-bobolarimiztomonidanyaratilganva butunjaxonga mashxurbo'lgan ajoyibsan'atnamunalaridankengfoydalanishga katta axamiyatberilmoqda. ShumanodaRespublikaxukumatitomonidan xalqtalimitiziminitubdanislox qilishmaqsadida 1997 yil «Ta'limto'g'risidagi»giqonunva «Qaroplaptayyorlashbo'yichamilliydastur» qabulqilindi. Unda O'zbekistonRespublikisiningtalimsoxasidagisiyosatini.Umuminsoniyqadriyatlar, jamiyatningistiqbolidagirivojlanishinihisobga olganholda yurgiziladi»deyilgan.

Bizningilmiyizlanishlarimizshuniko'rsatadiki. Qadimda ajdodlarimizustoz-shogirdasosidayoshlargahunaro'rgatishbo'yichaboytajribaga egadir. Lekinkeyingivaqtlarda ajdodlarimizningboymerosidanhamda tajribalapidanto'liqfoydalana olmayapmiz. Buningsabablaridanbiriustoz-shogird an'analarinichuqururganmaganligimizdir.

Ajdodlarimiztajribalariyoritilganadabiyotlarniham etarlidebbo'lmaydi. Bundantashqari ajdodlarimizboytajribalarinihozirda hunaro'rgatilayotganjoylarda. Chunonchi:Qoyaiyo'quvyurtlari,o'rta maxcuckasb-hunarta'limmuassasalarida ustozva shogird asosida

o’rgatayotganustaxonalarda. Qo’shimcha ta’limmuassasalarida ustozva shogirdsharqona odobito’liqo’rgatilmasligio’quvchiyoshdlrimizni axloq odobiga va bilimdarajasiga, umuman, ularma’naviyatiningshakllamishiga salbiyta’siretayotganliginingguvoxibo’lamiz. Shuninguchunbizquyida MarkaziyOsiyoda ustozva shogird an’analari asosida kadrlartayyorlashtarixihaqida fikryuritmoqchimiz. Qadimda usta tayyorlashningo’zigaxosmilliyan’anaviyasoslari, urf-odatlariqonun-qoidalari, talablaribo’lgan.

Shogirdga usta nominiberishiningo’ziga xosurf-odatlaribo’lgan. Butantanalikunshogirdning ota-onasiuyida yokiustaninguyida o’tkazilgan. Marosimga shogirdningqarindoshlari, ustozningqo’lida ishlayotgamshogirdlar, ustalar, mullalarqatnashgan. Ustalarkattasi oqsoqolyokiustakalonyokiuningyordamchisipoykorusta nomini olayotganshogirdningboshiga salla o’raydi. Choponkiygizibbeliga qiyiqchabog’lanadiva masalan, duradgoryokiyog’ocho’ymakorusta bo’ladiganbo’lsa belbog’iga tesha yoki arra qistiribqo’yiladi. Ustachilikqonunqoidalarida tarixiva duradgorlikning12 qoidalari, insonlarga bo’lganmuxabbat, tartib-intizom,haqgo’ylik, o’zkasbiniyurakdanyaxshiko’radiganbo’lishva boshqalaro’rgatiladi. Odatda, shogirdga toza suvberishganva undanbulgusiusta birnecha qultumichgan. Shundanso’ngesa shogirdni «usta» deganunvonbilanataganlar,ustalarva do’stlariunitabriklaganlar. Keyinkatta usta dasturxondan «Nonnisuxta» nomlitandirnonniolibkschaningsababchibo’lganshogirdiga qarab «qaerga borsanghamo’zingniqilgankulchangmiko’rsatgin»debberadi. Yoshusta nonnidasturxonustiga qo’yadi.

Ustalap tsex tariqasida katta va kichikduradgorlik, qurilishishlari olibborib, ulartarkibiga quydagilarkiraredi. Boshliqlar: oqsoqol,Qolib, najorboshi: ularningo’rinbosaripoykor;katta ustalarustozkalon; ustalar; ustaga yordamchiustalar - xalfa, nimsherik; shogirdlarhamda mulla hambo’lgan.

Buxoroda XIXasr oxiri - XX asrboshlarida duradgorlarboshlig'iusta G'ulom, O'ratepada esa usta KarimKajarboshi (usto AbduKarim Abduxoliqov) bo'lgan. Bushaharlarga xattokiO'rta Osiyoningturlichekkalaridanustalarkelibishlaganlar. Aksincha o'ratepalikxalqustalariniyuqoriZarafshonqishloqlarida masjid. Madrasa, turarjoybinolarini: bezashuchuntaklifetganlar. Ularnaqoshlik, yog'ocho'ymakorligi,ganchkorlikva boshqa ishlarnibajarganlar.

Ustalar orasida o'ziga xosmusobaqa hambo'lgan, ularningishlariko'rgazma qilinibkatta ustalar orasida baholangan, Masalan, O'ratepada Ko'k-Gumbazmaxallasida Mavlono Eshonmaqbarasiniikkio'yma eshiginibajarishusto KarimHorrotva AbduqodirHorrotlarga topshiriladi. Ularbittadaneshiknio'yibbezatadilarva ularningikkitabaqaliikkieshiklaribirqancha katta ustalar orasida baholanadi. Usta Abduqodiriyningeshigi 70 oltintanga, Usta Karimningeshigi 100 oltintanga bilanbaholanadi.

1924 yilgachaO'rta Osiyoda boshqa hunarturlariustalarikabizardo'zlikhamjuda ko'pbo'lgan. CHunonchi,Buxoroda 300dan 350 nafargacha ustalarishlagan. Hunarmadllaro'rta asrhunarshirkatlarko'rinishidagimaxsustashkilotga uyushganedilar. "Zardo'zlikish-lariustidainazorato'rnatuvchibutashkiloto'ziningsaylovchima'muriyatiga ega bo'lib, barcharasm-rusmlarga va urf-odatlargaizchil amalqilar, tantana va yig'ilishlaro'tkazibturaredilar. Bulardantashqari, uko'proqdiniyruhdagiba'ziqoidalarmajmuasinihamda zardo'zlikhunariningkelibchiqishihaqidagi afsonaviyrivoyatlarnio'zichiga olgan, mazmune'tiboribilanchex nizomiga o'xshabketadigano'zrisolasiga hamega edi".

Buhaqda unchakatta bo'lmaganrisolamavjudbo'lib, unda bukasbningkelibchiqishi, qoidalari, harbirishniboshlashdan oldino'qiladiganduolarberilgan, zardo'zlikkasbiningxomiysi «arvoxipir»gasig'inisho'zoqvaqtgacha qoida bo'libkeldi. Ilkbahorkunlarida, xususan, «gulisurh» ayyomida hamma zardo'zlarBuxoro yaqinidagiBaxovuddinqishlog'iga kelib, pirninghaqiga qo'yso'yib, xudoyiqilganlar. Usta zardo'zlarning aytishicha, yaqin-yaqingacha«pir-

zoda»larbo'lib, ularni«risola»chideyishgan. Xaftada ikkimarta, yakshanba va payshanba kunlaririsolachibarcha zardo'zlikustaxonalarini aylanibchiqanva odamlarnito'plabrisolao'qigan, o'qiganlarinitafsivlabbergan. Odatda, qiroatxonlikdasturxon atrofiga davometgan.Qiroatxonkeyinrisolachitinglovchnlardantushganuncha-munchanazir-niyoznibelbog'igatukkanda, fotixa o'qib,navbatdagiustaxonaga yo'l olgan.

Harbirhunarham odatda avloddan-avlodga o'tgan, begona bolalardanesa o'ta iste'dodli, shuhunarga mehrquyganlargina tanlabolingan. Chinakamo'ymakorustalarni orzuqilgankishilaruchunmadrasada o'qiganbo'lishi, tarix,she'riyatva musiqa sirlaridanvoqifbo'lishi,xatto musiqa asboblarinibirozchala bilishishartqilibqo'yilgan.Ayrimustalarshogirdlariuchunmaxsus odobtalablariniishlabchiqanlar. Masalan, ularshogirddanpokizalikni, ishvaqtida chalg'imaslikni, egriva noma'qo'lishlarga yaqinyo'lamaslikniqat'iyturibtalabqilganlar. Shularningo'ziyoq xalqimizqadim-qadimdan amaliysan'atturlarininechog'li ardoqlaganini, ganchkorliksan'atidekmashaqatlihunarnifaqatengmunosibva fidoyikishilargagina ishonibtopshirigaganiniko'rsatadi.

Odatda shogirdfaqatusta buyurganishniqilishikerakedi. Ustadanberuxsatshogirdbironishga o'rinsa yokiuning asboblariga teginsa kaltak erdi. Oltinchiyilga o'tganda Usmonning xaftalikishhaqielliktiyinga, sakkizinchiyilga o'tganda esa kundalikishhaqibirso'mga chiqdi. Bupaytda uimoratishidagi oddiycho'pgarchilikdantortib, Qishtterish, suvoq, gancho'ymakorliginimustaqilbajara oladiganbo'ldi.

O'zbekxalqiningko'p asrliktarixida xalq amaliybezaksan'atiturlariboyva rang-barangmadaniymerosimizningeng ajoyibva ommaviykisminitashkiletadi. O'zbekdiyorida vujudga kelibgullabyashnagansan'atturlaribemisilva betakrorligibilandunyoga mashxur. Bundaytarakkiyotboskichlari xakida fikryuritadiganbo'lsak, o'zbek amaliybezaksan'atiturlariningshox

ildizlariinsoniyatningbolaligi,ya'niibtidoiyjamiyatga boribtakalishiningguvoxibulamiz.

Amaliysan'atga bukadarchukurfalsafiyyondoshishnatijasida shartlilik,stilizatsiya - ramziylikka asoslanganbadiiybezak asarlariyaratishkuchaygan. Ushbutarixiy omilo'zbekmilliybezaksan'atininggurkirabrivojlanishiga turtkibulganki, xozirda jaxonga mashxurme'morchilikyodgorliklarimizulardagiganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, xattotlik, toshtaroshlikva boshqaturdagisan'atlarning ajoyibdarajada uygunligidanvamujassamligidaniboratdir. Xalq amaliybezaksan'atikishilarningma'naviy olaminiboyitadi, badiiydidinishakllantiradi, ruxiyatinitarbiyalaydi.Shuninguchun xamo'zbekxalq amaliysan'atikishilarnibadiiy axlokiy, umuminsoniytarbiyalab, ularningilmiydunyokarashlarinishakllantirishda, xamda madaniydarajasini oshirishda engzarurmanbalardanbiri xisoblanadi.

UrtaOciyonaqqoshliksan'atiqadimdandunyoga mashxur. Utmishda ota-bobolarimizko'rganmuxtashambinolar xozirgikungacha maftunkorjilvasiniyo'qotmagan. YUksakdidbilanishlanganNaqshlar xozirgachabizni xayratga solibkelmoqda.

Naqsharabcha tasvir,guldeganma'nonibildiradi. Qush, xayvon, o'simlik, geometrikva boshqa shakllarnima'lumtartibda takrorlanishidan xosilqilinganbezakdir.

Islomtalablariga buysunish oqibatida jonivorlar, parrandalarva odamlarnitasvirlashyo'qolibboribnaqqoshlikrivojtopdi. Arabyozuvio'zlashtirildi. Natijada naqshlarbilanunvonliyozuv (epigrafika) uslubipaydo bo'ldi.Arabyozuvinaqshlarbilanbirga chizildi. Arabyozuvi xambezak, xamduo-afsunlarvazifasinibajardi.

Naqqoshlikxalq-amaliybezaksan'atningbirturisifatida qadimdano'zbekmadaniyatiningmuximbulagixisoblanadi. Ko'pasrlarmobaynida uningbadiiyan'analarivujudga keldi. Naqshlarda san'atningboshqa xamma

turlaridanfarqliravishda avlodlarningchambarchasbog'likligini, an'analarningdavomiyliginiko'rishmumkin. Naqqoshlik an'analarisan'atning ana shuturinio'rganishmetodlarisifatida xambobodan otaga, otadano'gilga o'tibkelgan. Ana shudavomiyliktufaylinaqshsan'ati xozirgacha saqlanibkelmokda.Naqshningengyaxshinamunalariboyijodiyfantaziyaorqalibirlashtirilganshakllarningmaqsadga muvofiqligiva go'zalligibilanfarqlanadi. Bundaxalqustalarining atrofmuxitga qarashlaridagitafovut aksetadi. Naqshdagichizgilaruyinimusiqadagi oxangsingari, qo'shiqva ertakkabi"xalq xayotiytajribasiningkatta umumlashmasidan"iboratbo'ladi.

Badiiynaqqoshlikranglarninguyg'unligida va o'ziga xoskompozitsiyalarda go'zallikyaratishsan'atidir. Naqqoshustao'zishida rangningtabiiyjilosidan, bejirimshakldan,materialfakturasidanmoxirlikbilanfoydalanibyorqinifodalikka erishadi.

O'zbekistonning an'anaviyme'morchiligida naqqoshlik asosanshiftlarni, jimjimador arakilarni, saroyustunlarini, masjidlar, maktablar, boylarninguylari, yog'ochdanyasalganbuyumlarnibezashda qo'llangan. Noziko'simliksimon-geometrikNaqshdagio'zaro singibketgannovdalar, shoxlarva xashamatlitasvirlangangullarningritmik xarakati, o'zbekustalariningishlaridagiislimiva girix naqshlariningklassikmotivlarishiftlarningshakliga moslangan.Naqshko'proqintererlarniva yopiq ayvon, peshayvonlarnibezashga xizmatqiladi.

Xozirgipaytda naqshdanme'morchilikda, uyjixozlari, sovg'alar, mayda yog'ocho'yinchoqlar, musiqa asboblariva turmushda keraklibuyumlarnibezashda foydalaniladi.

Badiiynaqqoshliksan'atixozirgikunda kengtus olmoqda. Matbuot, radio, televidenie, kino orqalikishilar ana shusan'atnamunalariva uningxalqustalaribilantanishmoqdalar. Busan'atkorlar orasida O.Kosimjonov, E.Raufov, A.Boltaev, S.Norqo'ziev, A.Azimov, A.Isaev, B.Abdullaev,

T.Tuxtaxujaev, J.Xakimov, T.Axmedov, K.Karimovva boshqalarbor. Ularningva ulardanta’limolganshogirdlarningishlariniToshkentdagi amaliysan’atmo’zeyida, ko’rgazma zallarida, badiiysalonlarda, shuningdek, turar-joyva jamoatbinolarida, masalan, ToshkentDavlattsirki, Toshkenttemiryo’lvokzalifoyesi, metro stantsiyalari, mexmonxonalar, kafelar, restoranlar, choyxonalar, klublar, zavodva fabrikalarningvestibyo’llari, dam olishxonalarida ko’rishmumkin. Xozirgivaqtda maktablarda va maktabdantashqarimuassasalarda to’garaklartarmog’iniilojiboricha kengaytirishvazifasiqo’yilmoqda.

Xalqnaqqoshliksan’atinio’rganisho’quvchilarda badiiydidni, mexnatsevarliknirivojlantirishga va qatorfoydalibilim xamda malakalarnitarkibtoptirishga xizmatqiladi. Ularningijodiyqobiliyatlarini aniqlashva o’stirishgayordamberadi.

## 1.3 NAQSHVA UNINGTURLARI.

Naqshlarbuyumga, devorga yokibirorjoynibezamasino’ziga xosuslubiga, texnologiyasiga va mazmuniga ega bo’ladi. Naqshningo’zinima? Uningqandayturlaribor? Naqshtilideganda nimanitushinasiz?

Naqsh - arabcha tasvir, guldeganma’noni anglatadi. Qush, hayvon, o’simlik, geometrikva boshqaelementlarnima’lumtartibda takrorlanishidan xosilqilganbezakdir. Ganchkorlik, kandakorlik, kashtado’zlikda, zardo’zlik, kulolchilik, zargarlik, gilamto’qish, yog’ocho’ymakorlikva xokazolarda xar xilyo’llarbilannaqshlarishlanadi. Masalan: o’yib, chizib, chokyordamida zarbbilanqadabva boshqausullarda naqshsolinadi.

Gancho’ymakorligida ishlatiladigannaqshlarmazmuniga ko’ra- o’simliksimon, geometrik, gulligirix, ramziyva boshqaturlarga bo’linadi. O’simliksimonnaqshtabiatdagibarg, band, daraxt, buta, g’uncha va boshqanarsalarninaqqoshtomonidanstillashtirib olinganshaklinima’lumqonuniyatlar asosida takrorlanishidan xosilqilingan. Geometriknaqshturlaridanbirigirix bo’lib, chigal, tugunma’nosini anglatadi. Xandasiynaqshmurakkabnaqshturi.

Geometriknaqshmurakkabnaqshdanbiribo’libto’rtburchak, uchburchak, aylana va yoylardanko’pburchaklardaniboratbo’ladi. Tuzilishijixatdanto’g’richiziq, egrichiziqva aralashchiziqlardantashkiltopgangirixga bo’linadi. Geometriknaqshuzluksizraportlardantashkiltopganbo’lib, xarbirraporto’ztuzilishiga ega bo’ladi. Evropada arabeska debyuritiladi.

Gulligirix o’simlikva geometriknaqshelementlaridantashkiltopadi. Uningelementlariga yuqorida sanabo’tilgangeometrikva o’simliksimonnaqshlarkiradi.

Ramziynaqshlaresa kabutar, sher, baliq, davlatgerbiva boshqalarnistillashtiribtasvirlangannaqshelementlaridantashkiltopadi.

Ota-bobolarimizqadimiy obidalarininafisnaqshlarbilanbezarekanlar, ulardanzavq olishbilanbirqatorda ularorqalio’z orzu-umidlarini, muxabbatlarini, tilaklarinio’ylaganlar. Naqqosh ota-bobolarimizinsonruxiyatinijuda chuqurva

xartaraflama o’rganibuylarini ajoyibnaqshu-nigorlarbilanboyitganlar. Naqshlanganuyda kishilarxotirjam, ruxiy osoyishtalik og’ushida bo’lishi, uzoqumrko’rishinidonishmandbobolar asrlardavomida xayotiytajribalar asosida ilg’aganlar.

Keksa ustalarimiz aytishicha, qadimda naqqoshliksan’atishunchalikrivojlanganekanki, ularchizganyokibo’yagannaqshlariorqalibir-birlaribilanunsiz ovozda gaplasha olarekanlar. Naqqoshliksan’atitilinibilishuchunnaqshning xarbirunsuriva ranglariningramziy alifbosinibilmoqkerak.

AmurTemur, AlisherNavoiy, AbuRayxonBeruniy, Abu AliibnSino, Al-Xorazmiy, NizomiyGanjaviy, Nosir Xisrav, KamoliddinBexzod, Maoniy, Firdavsiy, Umar Xayyom, Boburkabijaxonga mashxur olim, shoirva naqqoshlarbinolarimiznikishilar xayolinio’ziga tortuvchi, tabiatninggo’zalmanzaralariga monandnaqshlarbilanbezaganlar. Kishilarninggo’zallikbilanyaqindo’st, birodarbo’lishga undaganlar.Chunonchi, Samarkandningeskishaxarmarkazi, ya’niRegistonda savlatto’kiturganSherdormadrasiga birnazarsolaylik. Uningpeshtoqlari, baxaybatgumbazlariva chiroyliminoralari, rang-barangsirlikoshinlari xamda nafis, xashamatli, dabdabaliishlanganjimjimaliqoplamasikishini xayratga soladi.

UshbuMadrasa boshqame’moriyyodgorliklarsingario’zmazmuniga va tarixiga ega. Buxorodagi AshtarxoniylardanMuxammadImomqulixondavrida xonningengishonchli xamda yaqinkishisi, ya’niSamarqand xokimiYalangtushbiyBaxodirnixoyatda boyibketgandanso’ng, Samarqandda Mirzo Ulugbekmadrasasiningqarshisida 1619-1636 yillarda zamonasiningmo’jizasi xisoblanganSherdormadrasasiniqurdirtiradi.

Bu ajoyibbino shaxarningko’rkiga ko’rkqo’shib, barcha shoiru-olimu, ulamo-yu, fo’zalolarva shaxarxalqining olqishiga sazovorbo’ladi, YalangtushbiyBaxodirme’mor AbduJabbor oldiga xechbirnarsadano’ziningulug’ ajdodlaridanqolishmasligininaqshlarorqalixalqqa etkazishvazifasiniqo’ygan. San’atkalitiniegallaganmashxurme’moro’z oldiga qo’yilganfalsafiyfikrninaqshtilibilanxalqqa unsiz ovozda etkaza bilgan. Sherdormadrasasiningboshfasadijozibalichiqqanbo’lib, uningpeshtoqimutanosib

(simmetrik) qilibramziynaqshlarbilanbezatilgan, qizgishzarxalyo’lbarssimonsherlarnozik oxularga quvib etibtashlayotganiniva ularning ortidankulibturgan odamqiyofada quyoshesa zarxalyog’dubilanxoshiyalangan.Ularning atroflaridanislimiynaqshunigoralarishlangan. Tasvirda epchil, kuchli, engilmassherramziyma’noda YalangtushBaxodirga ishora qilingan, uningmukoyasiqilibkuchsizlikramzitariqasida oxutasvirlangan. Quyoshesa usha davrva xayotramzitariqasida olingan. Zangoriranglikoshinlarorqalikoinotniva tinchlikninozikliko’simliksimonnaqshlarorqalibog’ubo’stonni, tabiatni aksettirgan.Xo’shnaqqoshlikda ramznima? - U arabcha "ishora qilmoq" so’zidan olingan, tabiatan, voqealikni xayotdagiquvonchva tashvishlarnido’stva dushmanlarni, yaxshilikva yomonlikninaqshelementlari, jonlichiziqlar, ranglarorqalitasvirlashdir.Bizendio’zbekmilliynaqshtili alifbosibilantanishtiribchiqamiz. Ularquyidagilardaniboratdir:

***Geometrik naqsh elementlarining ramziy ma’nolari:***

Tengtomonliuchburchak - tikturgan xolati xayotniboshlanishi, teskariturgan xolatiesa xayotni oxirinibildiradi.

Tengyonliuchburchak - yaxlitbo’lak, ayriliq.

Kvadrat - dunyoningturttomoni, osmonsaroyi, quyoshfarzandi, abadiylik, yorug’lik, mustaxkamlik.

To’g’rito’rtburchak - ishonch.

Romb - ayol, ya’ni ona erramzi, serfarzandlik.

Aylana -olam, baxt, quyosh, odamlarniyovuzniyatidanqaytarishramzi.

Beshqirraliyo’lduz - xayotningqisqaligi, beshkunlikdunyo.

Yarim aylana - baxt.

Yarim oy - islomdininiifodasi. Musulmonlikramzi.

O’ngsvastika - abadiy xarakat, o’sish, ko’tarilish.

Chapsvastika - teskari xarakat, buzilishi.

Quyosh - xayotramzi.

Bulut olov - qoliblikramzi.

### *Islimiy naqsh elementlarining ramziy ma'nolari:*

Bodom - baxtiqbol.

Barg – baxorgiuyg'onish.

Qalampir - xar xilyomonliklardanva yomonko'zdan asrashramzi.

Zirkguli - (Gulsafsar) - osoyishtalikva umruzoqligi.

Anor - ezgulik, to'qchilik, to'kin-sochinlik.

Oygul - baxtiqbolramzi.

Jingala – to'kinsochinlik, boylikramzi.

Olma – muxabbatramzi.

Novda - boylikva farovonlik.

Yaproq–to'qchilik, baxorgiuyg'onish, navro'z.

Iisriq - yomonko'zdan asrashramzi.

Atirgul – go'zallikramzi.

### *Qush va hayvonlar ramziy ma'nolari:*

Sher - mardlikva jasorat, kuchlilikramzi.

Tulki - makkorlik.

Chumoli - donolik, xoksorlikramzi.

Bulbul – sadoqat.

Xumo - baxtkeltiruvchiqush.

Boyqush - baxtsizlik.

Baliq - xushyorlikramzi.

Sichqon - uy xayvonlariniko'payishiramzi.

Echki - jasurlik, mardlik.

Oqkabutar - tinchlik.

Oxu – go'zallik, noziklik.

### *Ranglarning ramziy ma'nolari:*

Yashilrang - ona tabiatramzi.

Ko'krang - moviy osmon.

Qizilrang–g'alaba, xursandchilik.

Sariqrang – muqaddaslik.

Qora rang - motam.

Sariqgul – ayriliq.

Zangori - oliye'tikod.

Oq rang - tozalik, yorug'lik.

## II-Bob.

## Naqsh kompozitsiyalarini ishlash jarayoni.

### 2.1 MUSTAQIL NAQSHKOMPOZITSIYALARINI TUZISH.

Xalq amaliysan'atining qaysi bir turi bo'lmasin uning zaminida naqsh elementlaridan tuzilgan kompozitsiyayotadi.Naqshkompozitsiyasining bezak elementlari esa tabiatda uchrovchi gul, novda,barg, parranda va xayvonot dunyosini tasvirlashda xosil qilinadi.

Xar bir voxa va shaxarlarning naqshkompozitsiyalari bir-biridan o'zaro ajralib turadi.Xorazm, Toshkent, Fargona naqqoshlikmaktablariningo'zornamentva rangkolloritlarimavjud. Mustaqilnaqshtuzishjarayonida stilizatsiyaorqalinaqshelementlarinio'zaro biriktiradilar. Naqshbo'laklariningvazifalariva ravonchizilishiga e'tiborberiladi. Gul, barg, novda, bofta va qo'shbandliknaqshelementlarituziladi.

Talabalarningfantaziyalari, mavjudnaqshelementlarinima'lumqonun-qoidalarga amalqilgan xolda joylashtirishda ularma'lumbilimva malakaga ega bo'lishlarilozimliginitaqozo etadi. Birgina"Bodom", "Qalampir"nusxalarishaklidannaqqoshlik, zargarlik, kulolchilik, kashtachilik, zardo'zlikkabixalq amaliysan'atida turli-tumano'ziga xosnaqshnamunalariniyaratishmumkin.Kompozitsiyatuzishyo'llariva ularning xomakinamunalarinitayyorlashnaqqoshlik, ganchkorlik, yog'ocho'ymakorlikva boshqa amaliysan'atturlariuchunumumiydekkurinsada, aslida qo'llaniladigan xom ashyosi, ijro pardozturlaribilanfarqlanadi.

Kompozitsiyaso'zilotincha bo'lib"joylashtirish, qurish, tuzish"deganma'noni anglatadi.Bundatanlangannaqshkompozitsiyasiga ko'rauningelementlariqog'ozyuzasida bir-biriga bog'liq xolda

joylashib,yaxlitkompozitsiyani xosilqiladi. Tanlanganmavzumazmuniga moskeladigannaqshkompozitsiyasinituzishuchunbirqancha xomakieskizlarishlanadiva ulardantalabga javobberadiganlaritanlab olinib, kompozitsiyatuzishda qo'llaniladi.Naqshkompozitsiyalartuzishda bo'laklarningurnini almashtirish, qo'shimcha detallarkiritishorqaliuningmavzusiniyanada boyitishkabilar xammuxim axamiyatga egadir.Naqshmavzusiningifodalashda kompozitsiyaning asosiyqonuniyatlariga rioyaqilishlozim.

Kompozitsiyada naqshyaratishmuayyanqoidasinisimmetriya, assimetriya, muvozanat, detallarningulchovi, shakli, rangikabilarga rioyaqilishtashkiletadiva bunga qat'iy amalqilinadi.

Naqshkompozitsiyalarinituzishda ko'proqquyidagilarga etiborberiladi:

- Naqshnamunalaridagichiziqlar xarakatiningstilistikbirligiga erishish .
- Davriytakrorlanish.
- Simmetrikjoylashuvva ranglarmutanosibliginisaqlash.

Mustaqilnaqshtuzishjarayonida o'quvchilarstilizatsiyaorqalituzilganelementlarinio'zaro biriktiradigannaqshelementlariningvazifalariva ravonchizilishiga etiborberiladi.

Mustaqilnaqshkompozitsiyasinituzishda quyidagilarga e'tiborberishlozim:

- Chizilajaknaqshkompozitsiyasinishakl, o'lchamva taqsimlarinimo'ljalga olish.
- Kompozitsiyaningyakka yokiqo'shbanddaniboratbo'lishliginazarda tutilgan xolda tanob (yasovchi) elementishakllarinijoylashtirish.
- Kompozitsiyaga novda, barg, gulva boshqanaqshelementlarinikiritibmukammallashtirish.
- Naqshbandinibofta, shkufta elementlaribilanbog'labboyitish.
- Kompozitsiyaning asosiyshakliniumumlashtiribnaqshninomlash.
- Kompozitsiyaningma'no va maqsadini xisobga olgan xolda rangtuslarini aniqlash.

Yo'l, aylana, kvadratshakllariuchunchiziladigannaqshkompozitsiyalari xamixtiyoriyravishda mavjudnaqshelementlaribirikmalaridantuziladi.

Mustaqilnaqshtuzishniboshlashda talabaikki, uchva undan ortiqelementlaryordamida engsodda naqshvariantlarinituzishimumkin. Bundaixtiyoriytanobshaklichiziladiva gul, novda, bargelementlariyordamida tuldiriladi. Mavjudkompozitsiyanishaklyokigulelementlarinomlariyordamida nomlashmumkin.

Yo'l, aylana, kvadratga chiziladigannaqshkompozitsiyalarini xamixtiyoriyravishda mavjudnaqshelementlaribirikmasidantuziladi. Xarqandaynaqshkompozitsiyalaripishiqva chiroylichizilishiga axamiyatberilishikerak.

Elementlarningo'zaro tartiblijoylashuvinaqshningjozibasiniyanada oshiradi.

Mustaqilnaqshkompozitsiyasinituzishda xamustalariijodinikuzatish, xalq amaliysan'atimuzeyiga borishva nusxa ko'chirishyaxshisamaralarberadi.

Oddiynaqshkompozitsiyatuzish.

Boshlang'ichsodda naqshkompozitsiyalarinituzish odatda talabalarda buborada ayrimnazariyva amaliytushunchalar, ishtajribalari xosilbo'lganidanso'ngmustaqiltopshiriqsifatida berilishimumkin. Dastlabtalabalarbuyumyokiyuza sirtini, uningo'ziga xoso'lchamlarinidiqqatbilanko'zdankechirib, bulajaknaqshkompozitsiyasiningshaklva elementlarini"xayolan"tanlab oladilar. Albatta,bunaqshelementlaritalabalartomonidanqachonlardiro'zlashtirib olinganyokikuzatilgannaqshbo'laklaridaniboratbo'ladi. Bundatalabalarningtasavvurlari, ishtajribalari, fikryuritishlariqanchalikyaxshirivojlanganbo'lsa, shuningdek, xotiralarizaxirasida qanchalikko'pnaqshelementlarimavjudbo'lsa,ular ajoyibnaqshkompozitsiyalarinituzishlarimumkinbuladi. Tuzilajaknaqshkompozitsiyalaribo'laklar asosida tuzilib, uningnusxasimaxsususulda keraklijoylarga ko'chirilibtushiriladi.

Buusuldanfoydalanishuzoqvaqtlarmobaynida naqqoshlarmexnatini ancha engillashtiribkelmoqda. Shuko'rsatmalarga muvofiqshaklyasovchireja- qolip 4\1 nisbatda chizib olinadi. Ramka chiziqlariyakka, qo'shva birnecha qo'shimcha chiziqlardaniboratbo'lishimumkin. Patnisko'rinishidagibushaklga bofta va gajakelementlariulanadi. Navbatdagibosqichyakka yokiqo'shbandlitanobyasovchisinitopishdir. Tanobshaklimexrobva yurakshaklidaniboratbo'lishi xammumkin. Mashqlardavomida chiziqlarxarakatiningravonligiga shaklchiziqlariningqiyshiqyokisiniq xolatda chizilibqolmasligiga e'tiborqaratiladi. Yakkabandyo'lidaniborattanob ayrisishkufta elementibilanbog'lanadi. Endiyuzabo'shliqlariga gul, novda, bargva boshqaelementlarnibir-biriga bog'lagan xolda joylashtirishrejalashtiriladi. Novda shakllarbo'yicha xarakatlantirilibchizibboriladi. Kompozitsiyatarkibidaginovdaningchizilishigulva boshqaNaqshelementlariningbir-birlaribilanyaxlit, uzviybog'lanibketishinita'minlaydi. Naqshnamunasiga novda, gulva bargelementlarinijoylashtirish, ya'niulashnatijasida kompozitsiyamazmunitugal echiminitopadi, mavjudnaqshkompozitsiyasipatnisko'rinishidaginaqshlarturiga xosbo'lganligisababli"Patnisislimi"deb ataladi.

Kompozitsiyarejasinituzishva chizishjarayonida shaklva zaminbo'yicha tarqaluvchiranglarva elementlarningo'zaro mutanosibligi xisobga olinishishart. Buninguchundastlabnaqshkompozitsiyasiningqoralama nusxasichizib olinadi. So'ng, ana shuqoralama asosida (lozimtopilgantaqdirda ayrimo'zgartirishlarkiritishorqali) xarbirbo'lakkaishlovberilgan xolda uningnusxasikeraklijoylarga ko'chiriladiva yaxlitnaqshtuziladi.

Naqsharabcha tasvir, guldeganma'noni anglatadi. Uelementlarima'lumtartibda takrorlanadiganqush, xayvon, o'simliklar, geometrikshakllarva boshqalarningma'lumtartibda takrorlanishidan xosilqilinganbezakdir.

Naqshlarmazmuniga ko’rao’simliksimon,geometriknaqshlarga,gulligirix, ramziyva boshqaturlarga bo’linadi.O’simliksimonnaqshtabiatdagibarg, band, daraxt, buta g’uncha va boshqanarsalarninaqqoshtomonidanstillashtirib olinganshaklinima’lumqonuniyatlar asosida takrorlanishidan xosilqilingan. Geometriknaqshturlaridanbirigirix bo’lib,chigal,tugunma’nosini anglatadi. Xandasiynaqsh -murakkabnaqshturi. Ugeometriknaqshturlaridanbiribo’lib, to’rtburchak, uchburchak,aylana va yoylardan xamda ko’pburchaklardaniboratbo’ladi. Geometriknaqshuzluksizrapportlardantashkiltopganbo’lib, xarbirrapporto’ztuzilishiga ega bo’ladi.

Ruta- ikkitomonga ulanuvchinaqshtaqsimi, ya’ni xoshiyanaqsh. Uningo’lchamiko’pincha 14-20 sm atrofida bo’ladi. Xoshiyanaqshturlixilbo’lib, uningmexrobga, xonaga ishlanishiga qarablula xoshiya, ishkomva boshqaturlaribo’ladi.

Munabbat- arabcha o’stirmoqdeganma’noni anglatadi. Asosikvadratyokito’rtburchakdantashkiltopib, to’rttomonga takrorlanadigannaqshtaqsimi. Katta yuzalarnibezashda munabbatdanfoydalaniladi. Munabbatningo’simliksimon, geometrikva boshqakompozitsionturlaribor. Uningmunabbatimexrob, munabbatibofta, munabbatiislimi, munabbatigirix va boshqa atamalarimavjud.

Turunj- arabcha “limon”deganma’nonibildiradi. Ruschamedalon. Naqshlarda kompozitsiyaningmarkaziga chiziladigannaqshturi.Turunj xechqandaynaqshgaulanmaymuallaqturadigankompozitsiyabo’lib, uningshakli asrlardavomida rivojlanib, boyitilgan.

Namoyon- forscha ko’rinish, manzara demakdir. Namoyon xechnimaga ulanmaydiganmustaqilkompozitsiyabolib, murakkabnaqshturiga kiradi. Uningo’simliksimon, geometrik, gulligirix, ramziyva boshqaturlarimavjud.

Namoyonlarsimmetrikva assimmetriktuzilishga ega bo’ladi.

## 2.2 NAQSHELEMENTLARI ASOSIDA KOMPOZITSIYALARTUZISH.

O’zbekxalqustalariqadimdanqo’llabkelayotganjamikinaqshlarborki, ulartabiatniva voqelikningshartlitasviribo’lishiga qaramasdano’ziga xosqonun-qoidalarga ega. Buqonun-qoidalartabiatningo’zidan olingan. O’simliklarfaqatbirtomonga qarabo’sadilar. Masalan, majnuntol, xuddipastga qarabteskario’sayotgandektuyuladi, lekinnovdada bargbo’lib, birtomonlama yo’nalishda davometibkeladi. Tabiatningbuqonuninaqshda o’z aksinitopgan. Usta chizadigannaqshshunchakio’z aksinitopgan, qog’ozbetinito’ldirishemasbalki, ongliravishda tabiatva badiiylikqonun-qoidalariga amalqilgan xolda manzara tasvirinichizishtushuniladi. Shuninguchunganchkorijodida engmas’uliyatlibosqichkomlozyatsiyanusxasinichizishdir. Agarnaqshkompozitsiyasitabiatqonuniga zidbo’lsa, o’yishda va pardozda xarqanchayutuqqaerishilsa xamishko’ngildagidekchiqmaydi. Daf’atanqaraganimizda o’ymanaqshjuda chiroyli, jozibalikorinadi, lekinbirozdanso’ngnuqsonlarsezilibqoladi. Kompozitsiya (mujassamot) - lotincha "kompostio" so’zidanolinganbo’lib, tuzish, bir-biriga solishtirish, g’oyasi, xarakteriva vazifasiga muvofiquyg’un xamda mutanosibjoylashtirish.

Naqqoshlikda, ganchkorlik, kashtachilikva boshqaxalq amaliybezaksan’atiturlarida kompozitsiyatuzishda simmetriya, markaztopish, davriytakrorlanish, bezakningdinamikligi, chiroyliligi, tabiiyligi, yorqinligiranglaruyg’unligiva g’oyaviyligini xisobga olishkerak. Bularning xarbirininusxalaro’z xususiyatiga ko’ranamoyon, turunj, kitoba, ruta, muxabbat, la’li, morpech, zanjira, kabimaxsuskompozitsiyalarga bo’linadi.

Kompanovka (joylashtirish) - chizishkerakbo’lgannaqshniyokibirortasvirniqog’oz, ganch, faneryokibiroryuzaga to’g’rijoylashtirish.

Simmetriya - grekcha so’zdan olinganbo’lib, o’lchovlarningbir-biriga munosibligi.

Ritm – Naqshelementinima’lummasofada birtekisda takrorlanibkelishibo’lib, naqshdagi xarakatninguzluksizva go’zalko’rinishinita’minlaydi.

Assimmetriya - kompozitsiyada simmetrikmuvozanatningbuzilishi.

Stilizatsiya - tabiatdagio’simlik, xayvonva boshqalarningtasviri, rangi, shakliva tuzilishinibadiiyusulda umumlashtirish.

Naqshkompozitsiyachizishda quyidagilarga amalqilishkerak:

a) tanobyokinovda tagidangul, bargniqoldiribtasvirlashmumkinemas;

b) tanobbilannovdanifarqlabtasvirlash;

v) taqsimda ortiqcha nusxa chizibqo’ymaslik;

g) tanobdan xechqachongul, novda, g’uncha va boshqalaro’sibchiqmasligi;

d) naqshelementlariningnisbatinisaqlash;

e) gancho’ymaga moslabnaqshkompozitsiyasinituzish;

z) naqshzichligiga e’tiborberish;

i) naqsh orasidagizaminbo’shliqlarnisbatinisaqlashvaxokazo.

O’rgangannaqshelementlarimiz asosida oddiynaqshkompozitsiyalarinituzamiz. Simmetriknaqshlartuzmoqchibo’lsak, avvalqog’ozga ma’lumo’lchamda olibunitaqsimi asosida simmetriknurchiziqlarnichizib olamiz. Ustalarnaqshlarniengxarakterlitakrorlanuvchiqisminitaqsimdebyuritadilar.

Taqsim - (Frantsuzcha qaytarish, ruscha rapport) naqqoshlikda, naqshningma’lumbirshaklida takrorlanuvchiqismi, bo’lagi. O’rta Osiyonaqshlario’ziga xos xarakterga ega bo’lib, naqshlarningdeyarli xammasitakrorlaiuvchima’lumbo’lakdan

(qismdan) iboratdir. Shutaqsimsatxitaqsimyuzideyiladi. Naqshlar avvaltaqsimyuziniqog’ozga belgilab, naqshkompozitsiyasiningbirqisminichizadiva axtasinitayyorlaydi. Naqqoshbezatganyuzaga shu axta yordamida naqshnitakrorlabtushiribto’ldiribchiqadiva bezatadi. Taqsimkompozitsiyasiningtakrorlanuvchiqismi xar xilbo’ladi. Chunonchi, uchburchak, to’rtburchak, kvadratva xokazo. Doira yokigumbazga mo’ljallangannaqshtasviriykompozitsiyayuziningto’rtdan, oltidan, sakkizdan, o’nikkidanva xokazo qismlarinitashkiletib, taqsimdoirada yonma-yontakrorlanadi. Bundaytaqsimni aylana taqsimdeyiladi. Taqsimto’g’richiziqbo’yicha takrorlansa unito’g’ritaqsimdebyuritiladi. Taqsimto’g’riva oyna almashibtakrorlansa, unda chapu-rosttaqsimdeb ataladi. Bundaytaqsimjuda kengtarqalgan. Bizshunaqshbo’lagi, ya’ni, taqsimnio’zinichizib olsakbo’ldi, Keyinshutaqsimbo’yicha bizchizgannaqshkompozitsiyasini axtasinibemaloltayyorlay olamiz.

Naqshkompozitsiyalarinibirnechta chizibmashqqilinadi. Chizilgannaqshkompozitsiyalardanengyaxshisitanlab olinadi. Chetiga zanjiralardanbirini xoshiyatariqasida qo’llashmumkin.Agarzanjira qilmasangizchetidan albatta ramka qoldiring. Ramkasiznaqshnibezalmaganuxshatishmumkin.

Tuzgannaqshkompozitsiyanikalka (xitoy) qog’oziga ko’chirib axtasi (ulgisi) tayyorlanadi.

Axta quyidagicha tayyorlanadi.

Axta – Naqshyokibirorrasmnishaffof (kalka) qog’oziga chizib, chiziqyo’llariniigna bilanteshib, buyumiziga tushirishuchuntayyorlangan andaza. Xorazmda uniulgi, Buxoroda so’zandebyuritiladi. Ilkdavrlarda ustalarsirtga to’g’ridan-to’g’richizib, o’yibketganlar, keyinchalik axta orqalitasvirnitushirishqulayliginibilibfoydalanibkelganlar.

Naqqoshlar, ganchkorlar, yog’ocho’ymakorlarva boshqalarnaqshkompozitsiyalariningeskiziniyillardavomida saqlabkelganlar. Ular xoxlaganvaqtda ulardanijodiyfoydalanibtakomillashtirganlar. Bu axtalar xattoki otadanbolaga merosbo’libqolgan. Ustalar axtanimaxsussandiqlarda saqlabkelganlar. Xoziresa davlat arxivlarida saqlanibkelinmoqda. Masalan, mashxurganchkorlarUsta

ShirinMurodov, ToshpulatArslonqulov, naqqoshlarT. Tuxtaxujaev, Jalil Xakimovva boshqalartayyorlagan axtalar arxivlarda saqlanmoqda. Axtanitayyorlashuchunva shaffof (xitoy) qog'ozga naqshkompozitsiyasiga moslabsimmetriyao'qibo'yicha qog'ozniikkiga, to'rtga va xokazoga buklanadi. Buklamaningbirqismiga naqshchiziladi. Naqshshaffofqog'ozniyupqa yostiqcha ustiga qo'yibnaqshchiziqlariustida igna bilanteshibchiqiladi. Naqshningyirikva maydaligiga qarabigna tanlanadi. Igna tegishli oralig'inaqshningmayda va yirikligiga bog'liq. Agarnaqshmayda bo'lsaigna oralig'idagimasofa yaqinbo'ladi. Naqshnusxasiniigna bilanteshibbo'lingandankeyin, shaffofqog'ozga yoyibyuboriladi, natijada axta xosilbo'ladi. Tayyorbo'lgan axtaniishyuzasiga qo'yib, ustidan xoka uribva bosibyurgizibchiqiladi. Natijada naqshnusxasiishyuzasiga ko'chiriladiva xakozo.

### 2.3 8 raxli xontaxta yuzasiga naqsh kompozitsiyasini ishlash

Men ijodkor musavvirlarning ishlaridan (asarlaridan) ruhlangan holda bitiruv malakaviy ishini Amaliy san'atning naqsh yo'nalishi bo'yicha bajarishga ahd qildim. Bitiruv malkaviy ishini «8 raxli xontaxta yuziga naqsh» ishlash deb nomladim. Jonajon o'lkamizning husni tarovatini xalq amaliy san'atining boy ko'rinishga ega ekanligini chizgilarda ko'rsatishga ahd qildim. Bitiruv malkaviy ish yuzasidan o'zbek musavvirlaridan Ch.Axmarov, B.Jalolov, O'.Tansiqboyevning, Z.Kovalevskaya, Z.Inog'omov, B.Boboyev, R.Temurov kabi rassomlarning ijodini chuqur o'rgandim. Ayniqsa Ch.Axmarovning miniatyura janrida ishlangan «Etti go'zal» va miniatyura janrida ishlangan yana bir necha miniatyura kompozisiyasini tahlil qildim.

Kompozisiyada detallarning joylashuvini konstruktiv qurishini, rang qo'yish uslubini ranglararo yig'imini rang kaloritini musavvirlarning asl maqsadini o'rganib chiqdim. Bitiruv malakaviy Ishim yuzasidan bir necha variantda qoralama ishlar etyutlar bajardim.

Xalq amaliy san'ati numanalaridan kiritib kompozisiyani mazmunan boyitishga harakat qildim.

Xontaxtanaqshi kompozitsiyasini detallarning qoralamasini ustida ishladim.Kompozisiyada rang texnologiyasi qonuniyatlarini hisobga olib naqsh kompozitsiyasini bajardim.

Bu xontaxtadagi barcha gul va bandlarning qalam tasvirini aniq ishladim va joylashtirdim, narsalarning shaklini va formasini topdim. Keyingi navbatda iliq va sovuq ranglarda aniqladim.

Xontaxtadagi barcha gul, band, novda va barglarrning rangda to'yingan ko'rinishda quyuq berib formani shaklini aniqladim. Kompozisiyada to'qrang, och rang qismlarni, ya'ni ranglar munosabatlari yig'imini aniqladim.Ishlangan naqshni tahlil qilib kamchiliklarimni aniqlab tuzatishlar kiritdim. Xontaxtadagi kalorit ranglararo uyg'unlik bir-butunlik kabi asosiy ko'rinishlarni ko'rib chiqib, rang tus yaxlitligini topish uchun yana ishlov berib yakun yasadim.

## X UL O S A

O'quv yurtlaridagi badiiy bezash ishlari haqida fikr yutirilganida ko´rgazmali agetattsiyani tasirchanligini oshirish va shu orqali o´quvchilarga estetik tarbiya ishining muvaffaqiyatini ta'minlash nazarda tutiladi. Shuningdek badiiy bezash ishlari juda katta ta'limiy va badiy – tarbiyaviy ahamiyatga ham molikdir. Lekin bu ishlar hamma o´quv yurtlarida ham yaxshi yo´lga qo´yilgan, deb bo´lmaydi. Buning birinchi sababi yuqorida aytilganidek, mazkur ishlarning qiyinligi va ularni bajarish uchun kerakli bilimlarga ega bo´lgan mutaxassislarning yo´qligidir. Shuning uchun o´quvchilarga sinfdan tashqari tasviriy san'at mashg'ulotlarida badiiy bezash ishlarini o´rgatish va ularning o´zlarini ana shu ishlarga jalb etish zarur.

Ma'lumki umumiy ta'lim, litsey, kollej va hunar maktabini islox qilishning asosiy yo´nalishlardan biri yosh avlodning mehnat tarbiyasini yaxshilashdan iboratdir. O'quvchilar badiy bezash ishlarini bajarish jarayonida o´zlarining badiiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda juda ko´p ishlab chiqarish - texnik operattsiyalarni ham o´rganadilar. Materiallarning xossalari haqida anchagina qiziqarli narsalarni bilib oladilar, qog'oz, gazlama, yog'och, metal, va hokazolarni

ishlatish texnologiyasi hamda turli asboblardan foydalanish qoidalari bilan tanishadilar.

Eng muhimi o´quvchilarni bezash ishlarini to´g'ri va qiziqarli yo´sinda tashkil etish ularni bajarishga o´quvchilarning o´zlarini doimiy ravishda jalb qilish va ularni qunt bilan ishlashga odatlantirishdir. «Bolaga,- degan edi I.G. Pestalotstsi - muayyan darajada sabr – toqatni talab qiladigan ishni o´rgatishda barcha insoniy bilimlardan bolalar uchun eng oson va jozibalilarini tanla. Bolaning taqlid qilishi sening yo´l ko´rsatishing bo´lsin. Xonangda pech bo´lsa, uning rasmini chiz. Agar bolang bir yil davomida to´rt burchakni chiza olmasa-da har holda u qunt bilan ishlashga odatlanadi.»

Shuningdek, o´quvchilar badiiy bezash ishlarini ixtiyoriy ravishda va g'oyat qiziqish bilan bajarar ekan, ularni o´z holiga tashlab qo´ymaslik o´zlari bajarayotgan ishlarni maqsadi va mohiyatini bilib borishga, ana shu ishlarning natijasini tasavvur etishga o´rgatish lozim. Ana shularga ko´ra pedagogika oliy o´quv yurti badiiy grafika fakulttetida ta'lim olayotgan talabalar rassomlik va chizmachilikka doir bilimlarni o´zlashtirish bilan bir qatorda badiiy bezash ishlarini tashkil etish va bu ishlarga rahbarlik qilish yo´llarini ham puxta egallashlari lozim. Shundagina ular umumiy ta'lim va hunar maktabi islohotiga muvofiq xalq maorifini qayta qurish sharoitida yanada muhim ahamiyat kasb etayotgan o´quv yurtlardagi badiiy bezash ishlarini axborot, tarbiya, agitattsiyaning, yoshlarni Vatanimiz manfaati yo´lidagi faoliyatiga jalb qilishning samarali vositasi sifatida amalga oshirishda ko´zlangan maqsadga erishishlari mumkin.

## Adabiyotlar ro'yxati


1. I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T. 1998 yil
2. I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi. T. 1999 yil.
3. Xalq badiiy hunarmandchilik va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, - T: "Toshkent oqshomi" oynomasi, 2-aprel, 1997-yil, 38-son.
4. Azimov I. O'zbekiston naqshu nigorlari. – T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1987.
5. Axloq va odobga oid hadis namunalari. – T.: "Fan", 1991.
6. Bulatov S.S. Ganchkorlik, naqqoshlik va yog'och o'ymakorligiga oid adabiyotlarning izohli lug'ati. – T.: "Mehnat", 1991.
7. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati, - T.: "Mehnat", 1991.
8. Bulatov S.S. Ashurova M.O. Amaliy san'atdan qisqacha izohli lug'at. – T.: Qomuslar bosh tahririyati. 1992.
9. Bulatov S.S.Dadashev L. Naqsh alifbosi. – T.: "Cho'lpon", 1999.
10. Zohidov P. SH. Zeb ichra ziynat. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1985.
11. Zohidov P. SH. Farg'ona naqshi. (Xalq ustasi Saidahmad Norqo'ziev albomidan) – T.: O'z adabiy nashr, 1960.
12. Mirzaxmedov M.K. Boshlang'ich badiiy naqsh ishlash metodikasi. – T .: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.

13. Nabiev M. Rangshunoslik . – T .: O'qituvchi, 1995.
14. Ochiq osmon ostidagi muzey (Tuz. G.A.Pugachenkova) – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1981.
15. Hasanov R. Boshlang'ich sinflarda naqsh chizishga o'rgatish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1972.
16. Qurbonov T. Odobnoma – T.: O'qituvchi, 1991.
17. Qosimov Q. Naqqoshlik – T.: O'qituvchi. 1990.
18. Qosimov Q. Naqqoshlik – T.: O'qituvchi. 1982.
19. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" to'g'risidagi qonun. – T.: O'zbekiston . 1998.
20. Egamov H. Bo'yog'lar bilan ishlash. – T.: O'qituvchi. 1981.
21. Usmonov O. Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. – T.: "Fan".
22. G'ulomov S.S. Bulatov S.S. Sharqona "Usta-shogird" odobi O'zROUMTV "O'quv adabiyotlar, jurnal va byullitenlarni nashrga tayyorlash" markazi, 2000.